

MAMLAKATIMIZDAGI ISLOHOTLAR NATIJADORLIGI QASHQADARYODA BARCHA SOHALARDA NAMOYON BO‘LMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlar rivoji, islohotlar natijadorligi bilan yaqindan tanishish maqsadida 19-iyun kuni Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurdi.



Mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlar soha va tarmoqlarda o‘z natijalarini bermoqda. Butun respublikada texnologik “sakrash” kuzatilmoqda. Xususan, joriy yilning besh oyida sanoat 6,4 foiz o‘sgan, bu sohada eksport 6 milliard dollardan oshgan.

Bunda Qashqadaryo sanoatining hisssasi katta. Qarshi shahridagi “Alp texno servis” shunday eksportchi korxonalardan biri.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Qashqadaryo viloyatiga tashrifining dastlabki manzili “Alp texno servis” korxonasi bo‘ldi.

Qiymati 10 million dollar bo‘lgan mazkur loyiha elektr texnikasi yo‘nalishida global yetkazib berish janrida o‘rin topgan. Korxona xorijiy “TSL”, “HOFMANN” brendlari uchun buyurtmalar tayyorlab bermoqda. Shuningdek, mahalliy SMART brendiga asos solingan. Shu nomlar ostida yiliga 500 ming donagacha televizor va elektron platalar ishlab chiqarilmoqda.

Mahsulotlar yuqori texnologik, sifati va dizayni bozor talabiga mos. Shu bois, 70 foiz tovarlar eksportga yo‘naltirilmoqda. O‘tgan yili 2 million dollardan ziyod eksport qilingan. Bu yilgi reja 10 million dollar.

Davlatimiz rahbari bu tarmoqni yanada rivojlantirish zarurligini ta’kidladi.

— Bu sohada tajriba o‘rtirdik, tashqi bozorga yo‘l topdik. Endi bu korxonani kengaytirish kerak. Odamzod bor ekan, bunday mahsulotlarga talab bo‘ladi. Faqat sifat va nomenklatura bo‘yicha o‘shish, raqobatbardosh bo‘lish zarur, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yana bir muhim vazifa — mahalliyashtirish. Hozir korxonada bu ko‘rsatkich 50 foizdan oshgan. Kelgusida 20 million dollarlik yana 4 ta loyihani amalga oshirib, changyutgich, elektr choynak, havo sovutkich, ventilyator ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Bularning natijasida yiliga 30 million dollarlik eksport imkoniyati yaratiladi.

Korxonada 200 kishi ish bilan ta’minlangan. Qarshi davlat texnika universiteti bilan dual ta’lim yo‘lga qo‘yilgan.

Davlatimiz rahbari Qarshi shahridan Shahrisabzga ketayotib, poyezdda qashqadaryolik faollar bilan samimiy muloqotda bo‘ldi.

Suhbatda shahar-u qishloqlardagi o‘zgarishlar, aholi hayoti, bugungi tinchlik qadri haqida so‘z bordi.

“Inson qadri uchun, inson baxti uchun” degan ezu g‘oya davlatimizning faoliyat dasturiga aylangan. Shu asosida aholining turmush sharoitlarini yaxshilash, daromadi va farovonligini oshirish, mahallalarni obod qilish ijtimoiy hayotimizda yetakchi o‘ringa chiqmoqda.

Hududlar imkoniyatini to‘liq ishga solish, kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlar natijasida yurtimizning o‘zida munosib mehnat sharoitlari yaratilmoqda. Yoshlar va xotin-qizlar daromadli kasblarga o‘qitilyapti.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar samarasida sanoat jadal rivojlanmoqda, ilg‘or texnologiyali korxonalarda qo‘shilgan qiymat yaratilmoqda. Qishloq xo‘jaligi, turizm, transport, energetika sohalarida ulkan loyihalar ishga tushirilmoqda.

Prezidentimiz iqtisodiyot rivoji, aholi kayfiyatida yo‘llarning ahamiyati yuqori ekanini ta’kidlab, bu borada mutasaddilarga topshiriqlar berdi. Oxirgi 2 yilda yurtimizda 40 ming kilometr yo‘l va 540 ta ko‘priklar ta’minlangan. Bu yil Qashqadaryoda jami 100 kilometr magistral yo‘llar ta’minlanishi rejalashtirilgan. Bu loyihalarni tezlashtirish, yo‘l bo‘ylarini obodonlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Nuroniylar bu o‘zgarishlarni xalqimiz o‘z hayotida sezayotgani, islohotlarga yuqori baho berayotganini aytdi. Xotin-qizlar vakili barcha sohalarda ayollarga keng imkoniyatlar berilgani, natijada ular o‘z oilasi va mehnat jamoalarida qadrlanib, hayotidan rozi bo‘lib yashayotganini so‘zlab berdi.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Shahrisabz shahridagi ko‘p

tarmoqli kardiologiya markazi faoliyati bilan tanishdi.

Ijtimoiy davlat sanalmish O‘zbekistonda aholi salomatligini mustahkamlash eng dolzarb yo‘nalishlardan biri. Shu maqsadda davlat shifoxonalari isloh qilinyapti, sohaga investitsiyalar jalb etilib, xususiy sektor ham rivojlantirilmoqda. Jumladan, bugungi kunda Qashqadaryoda 700 dan ziyod xususiy klinika ochilgan, ularda 72 ta xizmat turi yo‘lga qo‘yilgan.

Rossiyalik tadbirkor bilan hamkorlikda tashkil etilgan “Oq saroy” klinikasi yaqinida ishga tushdi. Bu yerda 4 ta jarrohlik va 6 ta reanimatsiya xonalari, 100 dan ortiq shifo o‘rinlari mavjud. Bir vaqtning o‘zida 4 ta va kuniga 25 tagacha yuqori texnologiyali kardiojarrohlik amaliyotlarini o‘tkazish imkoniyati yaratilgan. Buning uchun Rossiya, Turkiya va Kuvaytdan malakali shifokorlar ishga jalb etilgan. Stentlash, aorta koronar shuntlash, tug‘ma nuqsonlarni bartaraf etish, endoprotezlash kabi davolar samarasi yuqori.

Markaz yuqori aniqlikda tashxis xizmati ham ko‘rsatadi. Masalan, zamonaviy exokardiografiya uskunasi sun‘iy intellekt yordamida ishlaydi. Bunaqasi hozircha O‘zbekistonda yagona.

Davlatimiz rahbari bunday innovatsion klinikalar tibbiyotda sifat va dunyoqarashni o‘zgartirishi, boshqalarni ham transformatsiyaga undashini ta’kidladi.

— Bu yerdagi tizimni andoza qilib olib, 14 ta hududimizda shunday klinikalar tashkil etish zarur. Bunga qancha mablag‘ kerak bo‘lsa, topamiz. Faqat zamirida xalqimiz uchun kafolatlangan sifati davo bo‘lishi lozim. Muqobillik, raqobat bo‘lmasa, sifatga intilish bo‘lmaydi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mutasaddilarga bu borada taklif tayyorlash, klinikalarni birlamchi bo‘lg‘in va tibbiy sug‘urta tizimi bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Shifoxonada 130 ta ish o‘rni yaratilgan. Malakali mutaxassislar tayyorlash uchun shu yerning o‘zida klinik ordinatura yo‘lga qo‘yilgan.

Prezidentimiz bunga alohida ahamiyat qaratib, talaba va shifokorlarning malakasini oshirish, xorijlik mutaxassislar bilan telemeditsinani kengaytirish muhimligini qayd etdi.

Aytish joizki, noto‘g‘ri ovqatlanish oqibatida qashqadaryoliklar orasida yurak qon-tomir xastaliklari ko‘p uchraydi. Yangi klinika va uning qoshidagi markaz ushbu kasalliklarni erta aniqlab, tashxis qo‘yish va davolashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur markaz tomonidan mobil diagnostika mashinalari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, chekka hududlardagi aholiga UTT, MSKT, EKG kabi tibbiy xizmatlarni ko‘rsatadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Yakkabog‘ tumanida barpo etilgan “Yangi O‘zbekiston” massivini borib ko‘rdi.

Aholi farovonligi va turmush madaniyatini oshirishga qaratilgan mazkur massiv ilg‘or shaharsozlik yechimlari asosida qurilgan. Ko‘p qavatli uy-joylar ko‘rkamligi, tartibligi va obodligi bilan tuman qiyofasini o‘zgartirib yubordi. 18 gektar maydonni egallagan massivda 54 ta besh qavatli uylar qurilib, 1 ming 400 ta xonadon aholiga taqdim etiladi.

Inshootlar nafaqat zamonaviy arxitekturasini, balki aholi uchun yaratilgan infratuzilmaning qulayligi bilan ham ajralib turadi. Har bir uy zamonaviy kommunikatsiya tarmoqlari, atrofi esa bolalar maydonchalari va avtoturargohlar bilan ta’minlangan.

Shu bilan birga, hududda uch qavatli “Eko bozor” barpo etilgan. U orqali mahalliy dehqonlar o‘z mahsulotlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste‘molchilarga yetkazish imkoniga ega. Bu esa ham sifat, ham narx jihatidan odamlarga ma‘qul bo‘lmoqda. Bozorda 640 ta ish o‘rni yaratilgan.

Davlatimiz rahbari ushbu ekobozorda yaratilgan sharoitlarni ko‘zdan kechirdi, sotuvchi va xaridorlar bilan muloqot qildi. — Bozorlar to‘kinlik, farovonlik va xalqning madaniyatini ko‘rsatadi. Yakkabog‘da shunday obod maskan bunyod etilgani quvonarli. Xalqimizning xarid qobiliyati, bozor madaniyati oshyapti. Shunga munosib bunday qulay savdo markazlarini ko‘paytirish kerak, — dedi Prezident.

Alohida e‘tiborga molik jihati, massivdagi infratuzilma inshootlariga quyosh panellari va geliolokhtorlar o‘rnatilgan. Bu esa energiya tejamlorligi va uzluksizligi, ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lmoqda.

Aholining dam olishi, bolalar va yoshlarning faol vaqt o‘tkazishi uchun ham qulayliklar yaratilgan. Xususan, sayilgohlar, bolalar bog‘chasi, sport maydonlari, sog‘lomlashtirish maskanlari hamda servis nuqtalari yagona konsepsiya asosida barpo qilingan.

Mutasaddilarga shu konsepsiya asosida boshqa tuman markazlari va massivlarni ham rivojlantirish yuzasidan ko‘rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari Shahrisabz tumani Hisor tog‘i yonbag‘ridagi sayyohlik salohiyati bilan tanishdi.

Turizm kam mablag‘ bilan ko‘p ish o‘rni yaratadigan, aholi daromadi va hududlar qiyofasini yaxshilaydigan soha. Qashqadaryoda ham bu borada imkoniyatlar ko‘p.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-noyabrda qaratilgan qarori asosida Qashqadaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm majmualari barpo etilmoqda. Jumladan,

xorijiy davlatlarning malakali ekspertlari va yetakchi kompaniyalari ishtirokida Miraki, Amir Temur, Uloch va Polmon mahallalarida sayyohlar uchun qulayliklar yaratilmoqda. Umumiy 240 gektar maydonda 400 million dollarlik 117 ta loyiha amalga oshirilayotir. Buning natijasida esa 1 ming 700 ta doimiy ish o‘rni ochiladi.

Bugun Mirakidagi o‘zgarishlar mazkur qaror va turizm bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishlar natijasi.

Ilgari bu so‘lim joylardan har kim o‘z bilganicha foydalanar edi. Soy bo‘ylari betartib, oromgohlarda infratuzilma yetishmasdi. Bugun bu manzil yaxlit turizm klasteriga — “Miraki” xalqaro turizm markaziga aylandi.

Davlatimiz rahbari bu yerdagi obodlik va qulayliklarni ko‘zdan kechirdi. Oqsuv daryosining ikki qirg‘og‘i bo‘ylab piyoda va velosipedda yurish uchun o‘n kilometrik “eko yo‘lak” tashkil etilgan. Bolalar maydonchasi, ko‘ngilochar bog‘, nuroniylar maskani, oilaviy mehmon uylari hamda ko‘chma savdo shoxobchalari mahalla o‘rkini oshirgan.

“Miraki and spa resort” dam olish hududi turizm markazining zamonaviy qismi. Bu yerda ikkita mehmonxona, savdo va ko‘ngilochar majmua barpo qilingan. Shuningdek, bir vaqtning o‘zida 600 nafar sayyohni qabul qiluvchi mehmonxonalar, 300 o‘rinli oilaviy xostel ochilgan. Bu yiliga 300 mingdan ortiq mehmonga xizmat ko‘rsatilishini anglatadi.

Davlatimiz rahbari yangi mehmonxona va savdo majmuasi faoliyati bilan tanishdi. Sayyohlik bo‘yicha istiqboldagi muhim loyihalar haqida ma’lumot berildi.

— Shahrisabzning ustun tarafi — yil davomida sayohatga kelish mumkin. Buning uchun yo‘l, kommunikatsiya, mehmonxonalar qurypmiz. Endi xizmat turlarini ko‘paytirishni o‘ylash kerak. Masalan, Mirakiga kelgan mehmon vaqtini qanday o‘tkazadi, nimalar xarid qiladi? Shu talablardan kelib chiqib, xizmatlar taklif qilish, bu yerning tabiati va sharoitini chet ellarda keng targ‘ib etish kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yangi sayyohlik markaziga investorlarni jalb etish uchun muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari tortilgan. Mirakiga eltuvchi va mahalla ichidagi yo‘llar mukammal ta’minlangan. Elektr ta’minoti yaxshilangan. Sayyohlarni qiziqitirish uchun Hisorak suv omboriga tutash hududda ikki kilometrdan ortiq dor yo‘li va dengiz sathidan 2 ming 700 metr balandlikda restoran ham barpo etilgan.

Bunday keng qulayliklar Qashqadaryoga keluvchi sayyohlar sonini oshirmoqda. O‘tgan yili viloyatga ikki yarim million nafardan ortiq sayyoh tashrif buyurgan. Shundan besh yuz ming nafarga yaqini aynan Shahrisabz tumaniga kelgan. Hududdagi bu o‘zgarishlardan keyin keltirilgan raqam bir necha barobar o‘shishi tabiiy.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Shahrisabz tumanidagi Hisorak suv ombori yaqinida barpo etilgan Hisorak kichik gidroelektrstansiyasini ko‘zdan kechirdi.

Hisorak suv ombori 1987-yilda qurilgan bo‘lib, 2004-yilda kapital rekonstruksiya qilingan. Hududda 2011-yilda ishga tushirilgan quvvati 45 MVt bo‘lgan asosiy Hisorak GES ham mavjud bo‘lib, yiliga 80 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Bu esa o‘rtacha hisobda 33 ming xonadonning yillik elektr energiyasi ehtiyojini qoplaydi.

Mamlakatimizda ekologik toza, arzon va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko‘paytirish hamda mavjud quvvatlarni oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

“O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyati tomonidan kichik va mikro GESlar barpo etilib, foydalanishga topshirilmoqda.

Shahrisabz tumanida energetik quvvati 3,5 MVtga teng, yiliga o‘rtacha 17,5 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi Hisorak kichik GESi shular jumlasidan. Uning qurilishi to‘liq mahalliyashtirish doirasida amalga oshirildi. Loyihaning qiymati 1,5 million dollari tashkil etadi. GES faoliyati natijasida yiliga o‘rtacha 5 million kub metr tabiiy gaz tejalandi. Bu yerda ishlab chiqariladigan elektr energiya 7 ming 300 ta xonadonga yetadi.

Davlatimiz rahbariga daryo suvidan energiya olish bo‘yicha kelgusi rejalar haqida axborot berildi.

Eng muhim loyihalardan biri — kelgusi ikki yil ichida umumiy quvvati 12 MVt bo‘lgan 416 ta kinetik turbinali mikro GES qurish rejasidir. Bu mikro GESlar ariq va kanallardagi suv oqimidan samarali energiya ishlab chiqarish imkonini beradi.

Hozirda viloyatda umumiy quvvati 49 MVt bo‘lgan 3 ta GES faoliyat yuritmoqda. Istiqboldagi loyihalar tufayli bu ko‘rsatkich sezilarli darajada oshishi kutilmoqda. Gidroenergetika orqali viloyatda aholi elektr energiyasi iste‘molining 15 foizini qoplash maqsad qilingan.

Mamlakatimizda so‘nggi sakkiz yil ichida elektr energiyasi ishlab chiqarish 38 foizga oshib, 81,5 milliard kVt/soatga yetdi. Joriy yilda respublika bo‘ylab umumiy quvvati 24,7 MVt bo‘lgan 5 ta yangi kichik GES foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Italiya, Fransiyaning landshaftli bog‘lari, qirdagi tokzorlari dunyoga mashhur. Ularni borib ko‘rishga ishtiyoqmandlar ko‘p. Endi shunday ko‘rkam maskan Shahrisabzda ham bor.

Davlatimiz rahbari Qashqadaryoga tashrifi chog‘ida ushbu agroturizm majmuasini borib ko‘rdi.

Ilgari bu joylar quruq qir-adir bo‘lgan. Tomchilatib sug‘orish yo‘lga qo‘yilgani natijasida hudud yashillikka burkandi. Majmua 520 gektardan iborat bo‘lib, adirlik qismida “terrasa” usulida uzum, gilos va olma ekilgan hamda o‘rmon barpo etilgan. Fransiya dan eng sara navlar olib kelingan.

— Cho‘l-adirlarni o‘zlashtirishimizga shubha qilganlar shu bog‘ni kelib ko‘rsin, — dedi Prezident.

7,5 ming tonna mahsulot yetishtirish imkoniyatiga ega majmuaning eksport quvvati 5 million dollarga teng. 100 ta doimiy va mingdan ortiq mavsumiy ish o‘rni yaratilgan. Ko‘chatlar rivojini fransiyalik mutaxassis kuzatib boradi, yoshlarga dehqonchilik sirlari va bozor talablarini o‘rgatadi.

Hududda, shuningdek, 120 o‘rinli restoran va 100 o‘rinli mehmonxona qurilgan. Agrologistika va o‘quv markazi, qayta ishlash, saqlash quvvatlari qurilmoqda.

Mutasaddilar bunday bog‘larni kengaytirish, boshqa tog‘li tumanlarda ham tashkil etish rejalarini haqida aytdi. Davlatimiz rahbari sug‘orishni tashkil etib, bog‘larni aholiga bo‘lib berish, odamlarga daromad manbai yaratish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davom etmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
O‘lmas BAROTOV,
O‘Za muxbirlari

“SHOIR BO‘LIB O‘ZBEKISTONDA TUG‘ILISH KERAK”

Ma’naviyatning o‘zagi — adabiyot. Davrning ruhi, inson ongidagi evrilishlar adabiyot vositasida yorqin va ta’sirchan namoyon bo‘ladi. Adabiyotga e’tibor yangi O‘zbekiston ma’naviy taraqqiyotining asosi desak, aslo xato bo‘lmaydi. Keyingi yillarda yurtimizda adabiy muhitni rivojlantirish, kitobxonlikni targ‘ib qilish, tijdkor qadriyatini ulug‘lash va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasidagi islohotlar mohiyatini anglagan hamda kechagi kun bilan qiyosiy tahlil qilgan har bir inson shunday xulosaga kelishi shubhasiz

Biz tanlagan yo‘l

Mubolag‘asiz aytish mumkinki, bu islohotlar tasodifiy, yo‘l-yo‘lakay chora-tadbirlar hosilasi emas. Bu sa’y-harakatlar tizimli, davomiy va barqaror xarakterga ega. Millatni ziyoli qilish yo‘lidagi keng ko‘lamli intilishlarni tahlil qilsangiz, adabiyotga e’tiborning asosida davlatimiz rahbari,

ma’naviyatning bosh homiysi Shavkat Mirziyoyev shaxsiyati va uning ijod ahliga bo‘lgan samimiy mehr-muhabbati mujassam ekanini teran anglaysiz.

Keling, fikrimni o‘zim boshdan kechirgan va guvoh bo‘lgan hayotiy voqealar orqali bayon qilsam.

▶ Davomi 3-betda



PARKENT – TABIIY BOYLIK, TARIXIY MEROS VA IQTISODIY SALOHİYAT UYG‘UNLASHGAN BETAKROR HUDUD

Munosabat

Davlatimiz rahbarining Parkent tumaniga tashrifi nafaqat hudud aholisi, balki Toshkent viloyati faollari, qishloq xo‘jaligi, sayyohlik sohalarida faoliyat yuritayotgan aholi va tadbirkorlar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

▶ Davomi 2-betda





2025-yil 20-iyun, 125-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

PARKENT – TABIIY BOYLIK, TARIXIY MEROS VA IQTISODIY SALOHİYAT UYG‘UNLASHGAN BETAKROR HUDUD



Abdumannop BO‘RIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz tashrif davomida tumanni yanada rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash, sayyohlik salohiyatidan to'laonli foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, bog'dorchilik va qayta ishlashni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari ochish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan loyihalar bilan tanishdi.

So‘lim bog‘larimizdan dunyo bozorlariga

Tuman an'anaviy ravishda bog'dorchilik va uzumchilik bilan shuhrat qozongan. Iqlim sharoiti mevalorlarni rivojlantirish uchun noyob imkoniyat yaratadi.

Davlatimiz rahbari ana shu imkoniyatni inobatga olgan holda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalar, logistika markazlari tashkil etish, eksportga yo'naltirilgan mahsulot yetishtirishni kengaytirish, "Parkent bog'laridan dunyo bozorlariga" tamoyili asosida ishlash muhimligini ta'kidladi.

Bu, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlar uchun qo'shimcha qiymat zanjirini shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, ishlab chiqarish bilan qayta ishlash jarayonini integratsiya qilish orqali hosilni yo'qotmay, yuqori qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga turki bo'ladi.

Prezidentimiz tumandagi "Meridian Tempo" korxonasiga qarashli intensiv bog'da sarxil



Konferensiya

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA

HUQUQNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDAGI ZAMONAVIY CHAQIRIQ VA TAHDIDLAR

Huquqni muhofaza qilish akademiyasida "Raqamli transformatsiya davrida huquqni muhofaza qilish faoliyatidagi zamonaviy chaqiriqlar va tahdidlar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ish boshladi.

O'tizdan ortiq davlatdan 100 dan ziyod yetakchi ekspertlar, olimlar, amaliyotchi mutaxassislar, sohaviy tashkilot va muassasalar vakillari ishtirok etayotgan konferensiyada huquqni muhofaza qilish sohasida fan va ta'lim: zamonaviy yondashuvlar va chaqiriqlar, raqamli kriminalistika va tergov faoliyatini tashkil etishning yangi usullari, raqamli davrda korruptsiya, jinoyi daromadlarni yuvish va terrorizmi moliyalashtirishga qarshi kurashish mavzulariga alohida e'tibor qaratildi.

Xalqaro darajadagi ekspertlar ishtirokida ushbu platforma shakllantirilishi akademiyaning ilmiy salohiyatini oshirish, innovatsion ta'lim yondashuvlarini joriy etish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan izchil sa'y-harakatlarining mantiqiy davomidir.

Anjuman kasbiy mulqotni rivojlantirishda muhim bosqich bo'lib, raqamli transformatsiya sharoitida jamoat xavfsizligi va huquq-tartibotni ta'minlashga doir amaliy yechimlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.



Munosabat

mevalar hosilini ham ko'zdan kechirdi. Bog'da Fransiya va Ispaniyadan keltirilgan ko'chatlarni zamonaviy agrotexnologik tizimlar orqali to'liq tomchilatib sug'orish tizimi joriy etilgan. Pishib yetilgan hosil eksportga yo'naltirilmoqda. Endi bu usulni boshqa hududlarda ham ommalashtirish, mevalarni parvarishlash va qadoqlash bo'yicha chet el tajribasini joriy etish kerak.

Meva-sabzavotchilikda Parkentning imkoniyati keng. Texnologiya olib kelib, jahon bozoriga sarxil va quritilgan meva eksport qilish salohiyati boshqa hududlarga qaraganda ko'proq. Mamlakatimizda ushbu sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 7 turdagi moliyaviy yordam, 3 xil soliqliq imtiyozlari hamda preferentsiya joriy etilgan.

Davlatimiz rahbari tumandagi 15 million dollarlik investitsiya hisobidan tashkil etilgan "Batu eksport" korxonasi faoliyatini bilan tanishib, xodimlari bilan shubbatlashdi.

Korxonada yiliga 5000 tonna meva-sabzavot qayta ishlanadi. Toshkent viloyatidan tashqari Samarqand va Farg'onadan ham mahsulotlar keltiriladi. Bu yerda tayyorlangan tovarlar Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Yevropa va MDH mamlakatlarga eksport qilinayotir.

Milliy ruh va sharqona mehmondo'stlik ustuvorligi

Tumanning yana bir muhim drayveri — turizm salohiyati. Yangi loyihalar asosida ekoturizm, agroturizm, hashamatli dam olish maskanlari va milliy madaniyatni targ'ib etuvchi hududlarni rivojlantirish bo'yicha aniq rejalar belgilandi.

Parkent — yurtimizning go'zal va takrorlanmas tabiiy hududlaridan biri. Uning tog'li va tog' etaklaridagi landshafti, musaffo havosi, soylari va mevali bog'larlari tabiat ixlosmandlari uchun juda sevimli. Hududning tabiiy go'zalliklari ba'zan Shveysariya tog' etaklarini eslatadi. Bir qarashda Shveysariyadagidek manzara, farqi — milliy ruh va sharqona mehmondo'stlik mujassam.

Ushbu hududga nafaqat mahalliy, balki xorijlik sayyohlarni ko'proq jalb qilish tuman iqtisodiyotiga valyuta kirib kelishi va yangi

ish o'rinlari ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm bilan bog'liq xizmatlar, xususan, mehmonxona, ovqatlanish, transport va ekskursiya xizmatlarini tashkil etish tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Davlatimiz rahbari Kumushkonda bo'lib, mahallaning sayyohlik imkoniyati, mehmon uylarini ko'zdan kechirdi. Bugun ushbu mahalladagi 80 dan ortiq xonadonda mehmonxonalar tashkil etilgan. Ularda yiliga 172 mingdan ortiq sayyohga xizmat ko'rsatilayotgani e'tirof etildi.

Tadbirkorlarga mazkur yo'nalishda zarur mablag'lar ajratib, qo'shimcha xizmatlar tashkil etishga ko'maklashish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Bu mahallalarda ichki imkoniyatni to'laonli yuzaga chiqarish orqali aholi bandligini ta'minlashda katta manba ekani qayd etildi.

Shuningdek, tashrif davomida "Oltinbel" cho'qqisidagi dam olish maskani va yangi tog'-chang'i kurorti loyihasi bilan tanishildi. Avstriya kompaniyasi tomonidan Parkentning qorli tog'larida yana bir ulkan loyihani amalga oshirish bo'yicha rejalar taqdimoti o'tkazildi. Ushbu loyihaning amalga oshirishi Parkentni Bo'stonlikdagi "Amirsoy" kurorti kabi Toshkent viloyatining yirik turizm manzillaridan biriga aylantiradi.

Sayyohlik markazlari ko'pligi yaxshi, lekin unga etiluvchi yo'llar har bir sayohatchini o'ylantirishi tabiiy. Endi Parkentga boruvchi sayyohlar bu o'ydan ham forig' bo'ladi. Chunki tumanni poytaxt bilan bog'lovchi "Bayto'rg'on — Parkent" elektrlashtirilgan temir yo'li qurilmoqda. Qariyb 24 kilometrlik bu yo'li foydalanishga topshirilgach, Parkentdan poytaxtimizga borish uchun katta qulaylik yaratiladi, tumanning xushmanzara go'shalariga sayohatga borish osonlashadi. Natijada qatnov va tadbirkorlik faollashib, Parkent iqtisodiyotining rivojlanish sur'ati jadal oshadi.

Parkentsoyini tartibga keltirish, qirg'oqlarini mustahkamlash bo'yicha ham bunyodkorlik ishlari bajarilmoqda. Birinchi bosqichda soyning 4 kilometri to'liq betonlashtirildi. Bu yangi maqsadlarga yo'l ochdi. Xususan, soy bo'yab qariyb besh kilometr yangi yo'l qurildi. U hozir tuman markazidan o'tgan asosiy ko'chaga yondosh bo'lib, bir kecha-kunduzda 10 ming avtomobilni o'tkazish quvvatiga ega. Bu transport yuklamasining bir qismini o'ziga olib, markazda tirbandlikni kamaytiradi. Bularning barchasi Parkent tumanining tog'li so'lim go'shalariga boruvchilar uchun qulaylik yaratadi. Ayniqsa, sayyohlarning sezilarli darajada ko'payishiga, odamlarning og'iri yengil bo'lishiga xizmat qiladi.

Albatta, viloyatda turizm sohasini rivojlantirishga bu darajada katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki sayyohlar oqimini yanada oshirish, ohanraboddek jalb qilish uchun, avvalo, yaxshi sharoit bo'lishi kerak. Sababi, sayyohlar ko'proq chiroyli tabiatga, toza havoga intiladi. Bu, o'z navbatida, tumanning turizm salohiyatini yanada oshirishga hissa qo'shadi.

Parkent — tabiiy boylik, tarixiy meros va iqtisodiy salohiyat uyg'unlashgan betakror hudud. Uning tog'li manzaralari, mevali bog'larlari va sayyohlar maskanlari nafaqat mahalliy, balki xalqaro turistlar uchun ham joziabadir. Tashrif doirasida belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar — bog'dorchilik, qayta ishlash va turizmni rivojlantirish orqali Parkent nafaqat Toshkent viloyati, balki butun mamlakat iqtisodiyotining drayver hududlaridan biriga aylanishi mumkin.



xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xavfsizlik hamda huquq-tartibotni ta'minlashning dolzarb masalalari bo'yicha ilmiy yechimlar ishlab chiqishga faol hissa qo'shmoqda.

Yalpi majlis konferensiyasi doirasidagi seksiyali muhokamalar uchun yuqori intellektual mezonni belgilab berdi hamda sohaning raqamli davr talablariga mos yangi g'oya va yondashuvlarni shakllantirishga turki bo'ldi.

Shuningdek, huquqni muhofaza qilish faoliyatida ta'lim va ilm-fan o'rni chuqur tahlil qilindi. Kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning innovatsion yo'llari muhokama etildi. Bu jarayonda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xalqaro tajribasini boyitish, amaliyot va nazariya o'rnatidagi aloqani mustahkamlash, shuningdek, zamonaviy ta'lim platformalari va texnologiyalar vositasida huquqiy bilimlarni samarali uzatish usullari e'tibor markazida bo'ldi.

Konferensiya doirasida Huquqni muhofaza qilish akademiyasi hamda qator milliy va xalqaro hamkor tashkilotlar o'rtasida anglashuv memorandumlari imzolandi.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

SIYOSAT



Xalqaro ko'rgazma

“YASHIL” TARAQQIYOT PLATFORMASI

Poytaxtimizdagi "CAEx Uzbekistan" majmuasida "Eco Expo Central Asia 2025" xalqaro ko'rgazmasi davom etmoqda. Mintaqamizda ilk bor o'tkazilayotgan va 30 dan ortiq davlatdan vakillar ishtirok etayotgan ushbu tadbir ekologiya sohasidagi ilm-fan yutuqlari va ilg'or amaliyotlarni keng targ'ib etish, barqaror rivojlanish yo'lida o'zaro hamkorlik va hamjihatlikni mustahkamlash, "yashil" transformatsiyalarni ilgari surishda muhim platformaga aylandi.

Ko'rgazmada Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri A.Abdurahimov ushbu tadbirning yurtimiz va mintaqamizni barqaror rivojlantirish, kelajak taraqqiyotiga tahdid bo'layotgan ekologik muammolarni bartaraf etishdagi ahamiyatiga alohida to'xtaldi.

Bugungi kunga kelib, ilm-fan va innovatsiyalar bo'yicha ulkan yutuqlarga erishilishi barobarida inson va tabiat o'rtasida uyg'un rivojlanishga yetarli e'tibor qaratilmagani tufayli jiddiy ekologik muammolar ham yuzaga keldi. BMT tahillariiga ko'ra, oxirgi 50 yil ichida tabiiy ofatlar soni qariyb 5 barobar oshgan, har yili 20 milliondan ortiq inson iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ofatlar tufayli o'z uyini tark etishga majbur bo'lmoqda. Dunyo bo'yab 2 milliardga yaqin odam suv tanqisligiga duch kelmoqda. Har yili dunyoda taxminan 12 million gektar hosildor yer yo'qolmoqda — bu har soniyada 23 gektar yer tanazzulga uchrayotganini anglatadi.

Shu bois, Parij kelishuvi, 2030-yilgacha BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari singari muhim global hujjat va tashabbuslar qabul qilimoqda.

Mamlakatimizda mazkur tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tashabbuslar orasida respublika miqyosidagi "Yashil makon" umummilliy harakati doirasida yiliga 200 million daraxt ekish evaziga yashil qoplamni 30 foizga yetkazish ko'zda tutilgan. Energetika sohasida 54 foiz "yashil" energiya ulushiga erishish maqsadida yirik loyihalar ro'yogba chiqarilaypti. Parij bitimi doirasidagi majburiyatlarimizni bajarish yuzasidan tizimli ishlar qilimoqda.

Joriy yilning "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili" deb e'lon qilinishi va shu asosda ishlab chiqilgan davlat dasturi doirasida bu jabhadagi chora-tadbirlar yanada kengaymoqda. Ushbu tadbirni tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad yurtimizdagi ana shunday xayrli ishlarni keng targ'ib etish, tegishli idora, tashkilot va muassasalar mutaxassislari va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni dunyoning innovatsion "yashil" texnologik yechim taqdim etuvchi yetakchi tashkilotlari o'rtasida aloqalarni kuchaytirishdir.

Ko'rgazma standlari xilma-xil. Ularda dunyoning yetakchi ishlab chiqaruvchilari tomonidan taqdim etilayotgan ilg'or innovatsion texnologiyalar, ilm-fan yutuqlari qatorida O'zbekiston ilm-fani va mahalliy sanoatimiz salohiyati, yangi innovatsion ishlarni amalga, yosh ixtirochilarning ijod namunalari bilan ham yaqindan tanishish mumkin.

Bu yerda ekologiya sohasida startap loyihalar ixtirochilari orasida yetakchi olimlar va turli soha vakillari qatorida yosh ixtirochilar ishlarnalariga keng o'rin berilgan. Yoshlarimiz o'z loyihalarida asosiy e'tiborni ekologik muammolar yechimiga qaratgani ahamiyatlidir. Masalan, "Ecomobile" loyihasini bunga misol keltirish mumkin. Turin politexnika universiteti bilan hamkorlikdagi ushbu loyiha doirasida yaratilgan quyosh va boshqa muqobil energiyadan quvvat oladigan ixcham zamonaviy elektromobil mashinalari barchaning e'tiborini tortdi.

Yosh tadqiqotchilarni quyosh energiya-si asosida ishlaydigan 3 turdagi ixcham ekotransporti ommaga taqdim etishga tayyorlamogda. Ahamiyatlisi, ushbu elektromobillarni ishlab chiqishda 40 foizgacha mahalliy mahsulotlardan foydalanish ko'zlanmoqda. Ayni paytda ushbu ixtiroga patent olish va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish ustida izlanish olib borilyapti.

Ko'rgazmada, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari hamda sanoati rivojlangan 55 ta tuman (shahar) hokimliklari "yashil" texnologiyalar va ekologik muammolarni bartaraf etishga oid loyiha va ishlarnalarini namoyish etmoqda.

Orolbo'yi innovatsiyalar hududiga aylanmoqda

Orolbo'yi mintaqasining barqaror rivojlanishi ko'rgazmaning muhim yo'nalishi. Ushbu mintaqaning o'ziga xos salohiyati va dolzarb ekologik muammolari alohida namoyish etilishi bejiz emas. Zero, so'nggi asrlarda insoniyatning ko'z o'ngida



bir dengizning halokatga yuz tutishi nafaqat mintaq, balki global miqyosda tabiiy muvozanatga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bu inson salomatligi bilan birga, ekologik barqarorlikka ham jiddiy ziyon yetkazmoqda. Shu bois, davlatimiz rahbari katta-katta minbarlarda bu masalani kun tartibiga ko'tarib, Orolbo'yidagi ekologik noxushliklarning salbiy ta'sirini kamaytirish yo'lida muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Ana shunday sa'y-harakat va tashabbuslar evaziga dunyo hamjamiyatining Orolbo'yiga e'tibori kuchaymoqda. Natijada ushbu hududda ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar kengayib boryapti. Xususan, so'nggi yillarda 2 million gektardan ziyod maydonda yashil qoplamalar barpo etildi. Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazining tashkil etilishi bu boradagi yana bir muhim qadam bo'ldi.

Markaz laboratoriya mudiri Abdurashid Mirzambetovning aytishicha, so'nggi yillarda mazkur markaz tashabbusi bilan hudud ekologiyasini yaxshilashga qaratilgan keng qamrovli ilmiy-amaliy loyihalar hayotga tabiiy etilyapti. Bu jarayonda yo'qolib ketayotgan o'simlik turlarini asrab qolish, ekotizimlarni muhofazalashga alohida e'tibor qaratilayotir.

Ko'rgazmada, shuningdek, sun'iy intellekt va "yashil" energetika sohasidagi innovatsiyalardan tortib, suvni tejash hamda ekologik ta'lim bo'yicha ilg'or yechimlarga cha bo'lgan kelajak texnologiyalarining keng doirasi qamrab olingan.

Turizm: an'analardan texnologiyalargacha

Taqdimotlardan biri yurtimizning ekologik turizm rivojidagi yutuqlari namoyishiga bag'ishlandi. Ekspozitsiya maydonida ekologik yechimlarni turizm infratuzilmasiga joriy etishning o'ziga xos jihatlari aks ettirilgan. Me'morlik va tabiiy ranglar uyg'unligida bezatilgan ushbu ko'rgazma tashrif buyuruvchilarga barqaror turizm g'oyasini to'liq his etish imkonini berdi.



Ishbilarmonlar o'rtasida o'zaro muzokara o'tkazish uchun maxsus sahna tayyorlangan. Unda ekoturizm sohasi mutaxassislariga ekologik toza turizmni rivojlantirishning eng so'nggi tendensiyalari, barqaror turizmning eng yaxshi amaliyotlari va tabiiy resurslarni saqlashning samarali strategiyalari haqida ma'lumot berilmoqda.

Markaziy hudud O'zbekiston me'moriy yodgorliklaridan ilhom olingan gumbazli vertikal bog' shaklida bezatilgan, eng go'zal ekoyo'nalishlar — Chorvoq, Nurota, Ugom-Chotqol va boshqalar bo'yab virtual sayohat qilish imkonini beruvchi qurilma joylashgan. Uning yonida "yashil" energetika sohasidagi innovatsion loyihalar haqida ma'lumot beruvchi panellar o'rnatilgan.

Taqdimot maydoni — qayta ishlangan yog'ochdan yasalgan amfiteatrli sharoqna ustubdagi kichik sahna mutaxassislar bilan jonli mulqot o'tkaziladigan joyga aylandi. Bu yerda mutaxassislar ishtirokida ma'ruza va ochiq munozaralar bo'lib o'tmoqda. Xususan, "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish va texnologik innovatsiyalar, "yashil" investitsiyalarning iqtisodiy o'sishiga ta'sirini baholash va boshqa mavzular keng muhokama qilimoqda.

Shuningdek, turizmda "yashil" yechimlarga bag'ishlangan interaktiv loyihalar namo-

yish etilyapti. Ekologik yo'nalishlar uchun energiyatejankor elementlar, barqaror xizmat ko'rsatish va infratuzilma loyihalari, innovatsion startaplarga keng o'rin berilgan. Sog'lom ovqatlanishni targ'ib etuvchi standlar ko'pchilikning e'tiborini tortyapti.

Ishbilarmonlar o'rtasida o'zaro muzokara o'tkazish uchun maxsus sahna tayyorlangan. Unda ekoturizm sohasi mutaxassislariga ekologik toza turizmni rivojlantirishning eng so'nggi tendensiyalari, barqaror turizmning eng yaxshi amaliyotlari va tabiiy resurslarni saqlashning samarali strategiyalari haqida ma'lumot berilmoqda.

Ko'rgazma maydoniga o'rnatilgan o'tov shaklidagi maydon an'anaviy barqaror turmush tarzi ramzi bo'libgina qolmay, ekologik halokat hududidan "yashil" yechimlar hududiga o'tish vositasi vazifasini ham o'tamoqda.

Yana bir o'ziga xos loyiha — "Parkent" to'rt fasli tog'-chang'i kurorti maketi. Bu kurort 1200 gektar maydonni egallaydi va Avstriya kompaniyasi ishtirokida quriladi. Unda uch, to'rt va besh yulduzli mehmonxonalar, tog'-chang'i trassalari, ko'taruvchi qurilmalar, shalelar, piknik hududlari, restoranlar va sog'lomlashtirish majmualari barpo etiladi.

Bundan tashqari, pavilyonda ijodiy ustaxona joylashgan, u yerda sopol buyumlarni bo'yash, gilam to'qish va qayta ishlangan materiallardan esdalik sovg'alar tayyorlash bo'yicha mahorat darslari o'tkazilmoqda.

O'rmonlar — ona zaminning yashil boyligi

Ko'rgazmaning muhim tadbirlaridan yana biri o'rmonlarni muhofaza qilish va cho'llanishning oldini olishga bag'ishlandi. Bu masala alohida kun tartibiga ko'tarilishi bejiz emas. Zero, global ekologik muammolardan biri bo'lgan cho'llanish jarayoni yildan yilga kuchayib, tabiiy barqarorlik va hayot davomiyligiga jiddiy ta'sir etayotgan bugungi davrda yashil hududlarni kengaytirish orqali ushbu muammoga oqilona yechim topish mumkin.

Shu maqsadda mamlakatimizda keng qamrovli loyihalar amalga oshirilayotir. Davlatimiz rahbarining "Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bu borada muhim huquqiy asos bo'lmoqda. Ushbu hujjat asosida o'rmon xo'jaliklarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanaypti.



Amaliy ishlarning davomi sifatida O'rmon va yashil hududlarni kengaytirish, cho'llanishga qarshi kurashish agentligi tomonidan Prezidentimizning "2025-2027-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, o'rmon fondi yerlarida loyiha qiymati 12 milliard 800 million so'm bo'lgan 27 ta sug'orish qudug'i qazilishi rejalashtirilgan. Hozir 12 ta obyektning qurilish-ta'mirlash ishlari yakunlandi.

Ko'rgazmada mamlakatimizda ana shu yo'nalishdagi ishlar samarasi, ilg'or ekotexnologiyalar, iqlim barqarorligi va "yashil" transformatsiya sohasidagi eng ilg'or yechimlar taqdim etilmoqda. Jumladan, O'rmon va yashil hududlarni kengaytirish, cho'llanishga qarshi kurashish agentligi tomonidan "Yashil makon" stendi tashkil etilgan, unda o'rmon hududlarini kengaytirish, yashillik darajasini oshirish borasidagi ishlar o'z aksini topgan.

Shuningdek, o'rmonchilar mehnati bilan yetishtirilayotgan turli mahsulotlar mehmonlar e'tibori va e'tirofiga sabab bo'lmoqda.

Muloqotlardan birida O'zbekistonda iqlim o'zgarishiga gendrer nuqtayi nazaridan moslashuv masalasi muhokama etildi. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Xalqaro migratsiya tashkiloti bilan hamkorlikda tashkil etgan ushbu tadbirda iqlimiy moslashuvda oid siyosat va dasturlarda barqaror, inklyuziv va genderga sezgir yondashuvlarni ishlab chiqish xususida so'z bordi.

Bir so'z bilan aytganda, tadbir juda qizg'in va ko'tarinki ruhda o'tmoqda. 21-iyungacha davom etadigan tadbir ishtirokchilarini yana ko'plab rang-barang dasturlar kutmoqda.

Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



“SHOIR BO‘LIB O‘ZBEKISTONDA TUG‘ILISH KERAK”



Shuhrat ORIF,
O‘zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a‘zosi, shoir

Boshlanishi 1-betda

Birinchi voqea

1997-yilning yoz oylari edi. Poytaxtimizdagi Respublika nafis san‘at litseyiga hujjat topshirish uchun qishloqdan kelgan kunlarimning birida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga ustoz Yo‘ldosh Sulaymonni izlab bordim. Ustoz o‘sha kezlarda uyushma raisining birinchi o‘rinbosari bo‘lib ishlar va meni Farg‘onada ishlagan davridan yaxshi tanir edi. O‘zaro suhbat asnosida ustoz yaqin kunlarda Zominda yosh ijodkorlar respublika anjumani o‘tkazilishi va unda ishtirok etasam juda foydali bo‘lishini aytib turgan edi hamki, ro‘paradagi eshik ochilib, uyushma raisi, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov chiqib keldi. Yo‘ldosh Sulaymon ustoz shoirga meni tanishtirib, bir she‘r o‘qishimni buyurdi. She‘r o‘qidim. She‘r o‘qishni tugatganim hamono “Abdullajon, shu yigiti Zomindagi anjumanga olib borsak, nima deysiz?” dedi Yo‘ldosh Sulaymon. Abdulla Oripov “She‘ri pishiq ekan. Ma‘qul”, dedida, hali adabiy taxallusim yo‘qligini eshitib, “Shuhrat Orif” deb taxallus qo‘yib berdi.

Shu tariqa 1997-yilda o‘sha kezlari Jizzax viloyati hokimi bo‘lib ishlagan Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Zomin tumanida o‘tkazilgan 1-respublika yosh ijodkorlari anjumanida qatnashish baxtiga muharrar bo‘lganman. Shu tarixiy anjumanda keyinchalik hayotimni butunlay o‘zgartirib yuborgan voqea bo‘lib o‘tgan.

Anjumaning yopilish kunida e‘tirof etilgan ishtirokchilar qatorida sahnada she‘r o‘qidim. Shunda Shavkat Mirziyoyev Abdulla Oripovga qarata: “Abdulla aka, shu yigitdan sizning nafasingiz kelyapti. Yana bitta she‘r o‘qisin”, dedi. Yana bir she‘r o‘qidim. Keyin ijodkorlari anjumanida qatnashish baxtiga muharrar bo‘lganman. Shu tarixiy anjumanda keyinchalik hayotimni butunlay o‘zgartirib yuborgan voqea bo‘lib o‘tgan.

Shunday qilib Shavkat Mirziyoyev tashabbusi va qat‘iyati sababli o‘shanda — 15 yoshimda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga a‘zolikka qabul qilindim. Ijodkor sifatida o‘z bilisha ishonchimni oshirgan, hayotimda tub buzilish yasanagan mazkur voqeani o‘sha davrada qatnashgan ustozlarimiz yaxshi eslaydi.

Yana bir muhim tarixiy fakt shundan iboratki, keyinchalik **juda ko‘p iste‘dodli yoshlarga qanot va beshik bo‘lgan Zomin yosh ijodkorlar anjumanini o‘tkazish g‘oyasi muallifi va tashabbuskori aynan Shavkat Mirziyoyev edi.** O‘sha murakkab davrda mazkur anjumann Jizzaxda o‘tkazish tashabbusining o‘zi ham davlatimiz rahbaridagi adabiyotga e‘tibor, ijodkorlarga g‘amxo‘rlik hissi bundan ancha yillar avval mavjud bo‘lganini, bu fazilat kecha yoki bugun paydo bo‘lmaganining yorqin isbotidir.

Ikkinchi voqea

2003-yil oktyabrda bir guruh tadbirkorlar yangi partiya — Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasini tuzish tashabbusi bilan chiqdi. Tashabbuskor guruh safida men — 22 yoshli jurnalist yigit ham bor edim. Birinchi Prezident bilan uchrashuv bo‘ldi. Men yoshlar nomidan so‘zga chiqdim.

O‘sha voqeadan bir oz o‘tib, meni Prezident devoniga suhbatga chaqirishdi. Ildorada qarshi olgan mas‘ul xodim meni muvaffaqiyatli chiqish bilan tabriklab, “Siz partiya davri yoshlarning yetakchisi bo‘lasiz”, dedi. Shunda men mas‘ul xodimga asli shoirligimni, poytaxtga katta

ijodkor bo‘lish orzusida kelganimni va o‘zimni shoir hisoblashimni aytdim. Bu gapimni eshitib, boyagi xodim o‘midan asabiy holda turib ketdi. Keyin qo‘pol ohangda “Siz bugundan boshlab yosh siyosatchisiz. Shoirlikni, adabiyotni unuting. Matbuotda she‘rlar bilan chiqishlar qilmang. Faqat yoshlar yetakchisi sifatida ko‘rining”, dedi. Qayta-qayta tushuntirish berib, xonasidan kuzatib qo‘ydi.

O‘sha davrdagi eng yuqori idoradan chiqib kalovlanib qoldim. She‘riyatni hayotimning asosi deb bilardim. Ijodiy orzularim, rejalarim bor edi. Hammasini “ko‘mdim”. Keyin partiya ish boshladim.

Ora-sirada yashirincha she‘rlar yozib, hech qayerda e‘lon qilmay yurdim. Suhbat davomida qayta-qayta uqitirilgan so‘zlar uzoq vaqt meni ta‘qib qildi. Ijodkorlar meni adabiyotdan yuz o‘girganlikda, siyosatga berilganlikda aybladi. Bunday dashnomlarni eshitish va jimgina qabul qilish og‘ir edi. Lekin muhim idorada men bilan bo‘lib o‘tgan “profilaktik suhbat” haqida o‘sha davrda hech kimga og‘iz ochib bo‘lmasdi.

Hozir dadil vozyapman-u, lekin o‘sha tahlikali yillardan qolgan qo‘rquv asoratlari ko‘nglning bir chetida go‘yoki menga mung‘a-yib boqayotgandek...

Shu-shu 13 yil matbuotda ijodiy chiqishlar qilmadim. 2016-yil noyabrda Do‘rmonda O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripovning dafn marosimida Shavkat Mirziyoyevni — Zominda 15 yoshimda menga katta rag‘bat va dalda bergan insonni ko‘rdim. Ko‘nglim allanechuk bo‘lib ketdi. Uzoq yillar ko‘milib qolgan ijodiy hislar qayta uyg‘ondi.

O‘sha kunlarda prezidentlikka saylov kechayotgan o‘ta dolzarb palla edi. Vidolashuv marosimida yig‘ilgan ko‘pchilik tig‘iz davr bo‘lishiga qaramay, Shavkat Mirziyoyevning vaqt topib, shoirni so‘nggi manzilga kuzatishga kelganini aytishardi. Ijodkorlar u haqida boshqacha samimiyat bilan so‘zlar, xuddi “o‘zlarining odami”dek qabul qilardi. Harqalay men o‘sha kungi suhbatlarda shuni yurakdan his qilganman.

Prezidentimizning faoliyatida ma‘naviyatga, adabiyotga g‘amxo‘rlik ustuvor o‘rin kasb etdi. Ijodkorlar, san‘at va

Vatanimizda emin-erkin ijod qilish, ijodkor uchun butun dunyo havas qilgulik hamma zarur sharoit mavjud. Eng muhimi, adabiyotni sevadigan rahbarimiz, kitobxon xalqimiz bor. Biz, ijodkorlar jo‘shqin davrimiz ruhi, o‘quvchilar ehtiyojlarini his qilib, badiiy yetuk asarlar yaratishimiz kerak. Atoqli shoir Shavkat Rahmon yozganidek, “Endi ishlash kerak bu kengliklarda...”.

adabiyot ahli bilan muloqotlar doimiy tus oldi. Moliyaviy qiyinchiliklar bilan nochor ahvolga kelib qolgan ijodiy tashkilotlar qo‘llab-quvvatlandi. Tom ma‘noda “ijodkorlar yelkasiga shamol tegdi” — ham ma‘naviy, ham moddiy rag‘bat berildi. Bu tizimli sa‘y-harakatlarni ko‘rib, yangi davrning ruhi va shukuhini dildan his qilib, 2018-yilda (15 yillik ijodiy tanaffusdan so‘ng) yana ijodga qaytdim. O‘zimga o‘zim: “Emin-erkin ijod qiladigan davr keldi. Davring keldi, shoir”, dedim...

Uchinchi voqea

2022-yil oktyabrda Turkiyaning Bursa va Ko‘nya shaharlarida o‘tkazilgan 15-xalqaro turkiy she‘riyat bayramida ishtirok etish nasib etdi. 1992-yilda asos solingan mazkur xalqaro adabiy anjuman har ikki yilda bir marotaba turkiy davlatlarda o‘tkazib kelinar ekan.

O‘shanda anjuman tashkiliy qo‘mitasi raisi, turkiy adabiyotning atqoli namoyandasi Mehmet Do‘g‘on katta sahnadan turib, alamlari bir gapni aytgani esimd:

“Turkiy she‘riyat bayrami 30 yildan beri an‘anaviy o‘tkazib kelinmoqda. O‘tgan davrda bu tadbiri juda ko‘p mamlakatlarda o‘tkazdik. Lekin bir ulug‘ armonimiz bor — Turkiy xalqaro she‘riyat bayramini faqat O‘zbekistondagina o‘tkaza olmadik. Kelgusi anjumanimizni ota yurtimiz O‘zbekistonda tashkil qilsak, orzumiz ushali, armonimiz qolmasdi. Biz buni juda istaymiz va bu kunni intilqik bilan kutamiz”.



Bu so‘zlarni davrada xotirjamlik va ichki ishonch bilan eshitib o‘tirdim. Anjuman davomida Mehmet Do‘g‘onga va boshqa yurtlardan kelgan ishtirokchilarga Prezidentimiz tomonidan turkiy birlikni mustahkamlash, adabiyot va ijodkorlarga ko‘rsatilayotgan e‘tibor, vatanimiz erishayotgan olamshumul yutuqlar haqida jo‘shib so‘zlab berdim. Davlatimiz rahbarining aynan siyosiy irodasi bilan O‘zbekiston

amalda isbotlab berdi. Turkiy davlatlardan kelgan ijodkorlar o‘sha kunlari bunga qayta-qayta guvoh bo‘ldi.

Qiziq bir voqea yodimga tushdi. Adiblar xiyoboni darvozasida turkiyalik ijodkorlarni kutib oldik. Salom-alikdan so‘ng ular “Qayerga keldik, bu qanday park?” deyishdi. Biz faxrlanib, **Prezidentimiz tashabbusi bilan Adiblar xiyoboni barpo etilganini, bu maskan chinakam ma‘naviyat o‘chog‘iga aylanganini aytib berdik. Qardoshlarimiz hayrat bilan tingladi. Orasida so‘zimizga ishonmaganlari ham bor edi.**

Yana bir oz yurib, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi binosi yonida to‘xtaymiz. Qardoshlardan biri “Bu qandaydir konsert zalimi, muhtasham ekan”, deydi. Kulimsirab, “Yo‘q, bu Yozuvchilar uyushmasi”, deyman. Sezdim, ishonishmadi. Birgalikda ichkariga kiramiz. Mehmonlar uyushmaning zallari, xonalarini va yaratilgan sharoitlarni ko‘rib, rosmana hayratga tushdi. Bino davlatimiz rahbari tashabbusi va tashabbusi bilan yaratilgan sharoitlarni ko‘rib, rosmana hayratga tushdi. Bino davlatimiz rahbari tashabbusi va tashabbusi bilan yaratilgan sharoitlarni ko‘rib, rosmana hayratga tushdi.

2022-yilda Bursada tanishgan qadrdonim, Turkiya Yozuvchilar uyushmasi Ko‘nya bo‘limi rahbari Ahmet Ko‘so‘g‘li meni chetga tortib so‘raydi: “Aytayotganlaringiz chinmi?”.

“Ha, rost”, deyman dadil. “Yozuvchilar uyushmasida 65 xodim oylik olib ishlaydi. Bundan tashqari, hududlardagi bo‘limlarning har birida 3 nafardan xodim maosh oladi”.

— Iшонish qiyin. Qoyil, — deydi Ahmet Ko‘so‘g‘li. — Mana, men Turkiya



turkiy davlatlar oilasiga to‘laqonli a‘zo bo‘lib qaytganimni alohida urg‘uladim. So‘zlarnim tinglab, qardosh ijodkorlarda navbatdagi xalqaro turkiy she‘riyat bayramini O‘zbekistonda o‘tkazishga ishonch paydo bo‘ldi. Men bunga so‘zsiz ishonardim!

Darhaqiqat, oradan ikki yil o‘tib — 2024-yilning 26-30-noyabr kunlari Toshkent shahrida 16-xalqaro turkiy she‘riyat bayrami o‘tkazildi. Bu tarixiy voqea Turkiyada jo‘shib so‘zlaganim — O‘zbekistonda davlatning adabiyotga g‘amxo‘rligi va doimiy e‘tiborini

yozuvchilar uyushmasi Ko‘nya bo‘limi rahbariman. Men oylik ish haqi olmayman. Tirikchilik maqsadida boshqa kasb-kor qilganman. Bu yerga kelgan uyushmaga aloqador boshqa do‘stlarim ham oylik olmaydi. Hammamiz jamoatchilik asosida ishlaymiz. Uyushmamizning o‘z binosi yo‘q, ijarada o‘tiramiz. Ijaraga pulni ham o‘zimiz topamiz. Sizlarda hammasi boshqacha ekan. Prezidentingiz adabiyotni juda sevar ekan. Adabiyotni yaxshi ko‘rgan rahbaringiz bunday sharoitni yaratishi mumkin.

Suhbat asnosida sezdimki, turkiyalik ijodkor do‘stlarda bizga nisbatan ichki havas uyg‘ondi. Shunday bo‘lishiga, umuman, Yozuvchilar uyushmasi ishini shunday shaklda tashkil qilish mumkinligiga ishonch paydo bo‘ldi.

Uyushma binosidan chiqib, mehmonlar bilan Adiblar xiyobonidagi haykallar oralab sayr qilamiz. Qaysi bir chehraga qaramay, hayrat va havas hukmron edi...

To‘rtinchi voqea

Shu yil aprel oyida qirg‘izistonlik shoir va yozuvchilar keldi. Mehmonlar turli taqdimot tadbirlari, uchrashuvlarda qatnashdi. Safar yakunlanib, qardoshlarimiz qaytar chog‘ida ular bilan taassurotlari haqida suhbatlashdik.

Qirg‘iziston Yozuvchilar uyushmasi raisi Qanibek Imonaliyev bunday dedi: **“O‘zbekistonda adabiyotga davlatning yuksak e‘tibori kundek ravshan. Qaysi hududga bormaylik, shuning guvohi bo‘ldik. Bu ishlarning boshida, shubhasiz, Prezident Shavkat Mirziyoyev turibdi. Qardoshlarimiz erishayotgan natijalarni ko‘rib quvondik. Bu sa‘y-harakatlar o‘z samarasini berishiga shubha yo‘q. Eng muhimi, adabiyotga e‘tibor natijasida odamlar ongi va jamiyat qiyofasi ham o‘zgarmoqda”.**

Mehmonlardan biri — Qirg‘iziston xalq shoiri Marqaboy Amatov “Parkent” ijodiy uyida ijodkorlar uchun yaratilgan sharoitlar haqida to‘liqlanib so‘zlay ketdi. **“Parkentda 4 kun yashab, ketgim kelmay qoldi. Prezidentingiz shunday dam olish uyi barpo etilishida tashabbus ko‘rsatib, ijodkorlarga sog‘a qildi deb eshitdik. Dunyoning biror davlatida bunaqasini eshitmaganman. Bunday tashabbuslar dunyoga namuna qilib ko‘rsatishga arziydi”**, deydi u.

Qardoshlardan Zominda bo‘lgan bo‘lmaganini qiziqib so‘rayman. — Zomin alohida mavzu, — deydi ulardan yana biri. — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zolari Zomindagi zamonaviy sanatoriya imtiyozli shartlarda dam olish huquqiga ega ekan. Ham ijod qilishga, ham salomatlikni tiklashga qulay imkoniyat bu! Har yili Zominda yosh ijodkorlar anjumani o‘tkazilarkan. Ijodkorlar shunday go‘zal tabiat qo‘ynida ko‘proq yurishi va ijod qilishi kerak. Badiiy yuksak asarlar Zomidek joylarda yaraladi.

Suhbatimizga yana bir qirg‘izistonlik ijodkor yakun yasaydi: **“Qisqasi, shoir bo‘lib O‘zbekistonda tug‘ilish kerak...”.** Qardosh do‘stlarning bunday jo‘shqin so‘zlaridan keyin shu yurtda yashayotgan istalgan ijodkor o‘ziga sig‘may quvonishi aniq.

Beshinchi voqea

Kichik qizim 13 yoshda. Sal o‘yinqaror. Kitobga qiziqtirishga ko‘p urindim. Turli rag‘bat usullarini qo‘llab ko‘rdim. Negadir samarasi kam bo‘ldi.

Shunday kunlarning birida ishxonamizdagi hamkasbimning qizi Dilbar Haydarova “Yosh kitobxon” respublika tanlovining 2024-2025-yilgi mavsumida 10-14 yosh

toifasida g‘olib bo‘lgani haqidagi xabar tarqaldi. Asli buxorolik, hisobchi bo‘lib ishlaydigan hamkasbimni jamoada birgalashib qutladik. Unga rosmana havas qildik. Ijodkor emasmanmi, hamkasbimning o‘sha palladagi shodligi va hayajonini ich-ichimdan his qildim.

Bu yildan “Yosh kitobxon” respublika tanlovining g‘oliblariga Prezident sovg‘asi — BYD Chazor avtomobili topshiriladigan bo‘ldi. Hamkasbimning qizi, Al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchisi Dilbar Haydarova mazkur tanlovda g‘olib bo‘lib, otasiga shunday avtomashina sovg‘a qilgani haqidagi xabarni aytish uchun uyg‘a oshqindim.

Kitob o‘qishni uncha xushlamaydigan kichik qizimga tengdoshining yutug‘i boshqacha ta‘sir qildi. “Rostdanni, dada”, deb ishonqiramay qayta-qayta so‘radi. Shu kundan boshlab uning xatti-harakatlarida jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Kitob o‘qiydigan bo‘ldi. Ishdan qaytganimdan so‘ng har kuni xonasiga mo‘ralayman — kitob o‘qiyotgan bo‘ladi. Balki u ham otasiga Dilbar kabi avtomashina sovg‘a qilmoqchidir...

Bugun xuddi qizim kabi Dilbarga havas qilib kitobga mehr qo‘yg‘an, tinimsiz izlanayotgan minglab (ehtimol, millionlab) yigit-qizlar kamolga yetmoqda. Tahlillarga ko‘ra, kitob do‘konlari va kutubxonalarda eng ko‘p izlanayotgan kitoblar ham “Yosh kitobxon” tanloviga e‘lon qilingan 140 nomdagi adabiyotlar ekan ma‘lum bo‘ldi.

Gap bu o‘rinda yutuq sohibiga atalgan avtomashinada emas, davlatning yosh avlodga bolaligidan berayotgan rag‘batida va millat o‘z kelajagi haqida qayg‘urayotganida!

“Yosh kitobxon” tanlovi davlatimiz rahbarining besh muhim tashabbusi doirasida 2017-yildan buyon an‘anaviy tarzda o‘tkazib kelinmoqda. Mazkur tanlov mamlakatimizda kitobxonlikni targ‘ib qilish borasida boshlangan keng ko‘lamli harakatning mantiqiy hosilasidir.

2017-yildan buyon 238 nafar yosh kitobxon tanloving respublika bosqichida ishtirok etgan bo‘lsa, shundan 17 nafari g‘oliblikni qo‘lga kiritib, Prezident sovg‘asi — “Spark” avtomashinasi, 3 nafari “Kobalt” avtomashinasi sovrindori bo‘ldi.

Tanlovda ishtirok etish uchun 2024-yilda 913 ming (2023-yilda 805 ming, 2022-yilda 640 ming, 2021-yilda 554,8 ming)ga yaqin yosh onlayn tarzda ariza topshirgan. Shu raqamlarning o‘ziyoq O‘zbekiston to‘ma‘noda kitobxonlar mamlakatiga aylanib borayotganini tasdiqlaydi.

Munosib bo‘lish mas‘uliyati

Hikoya qilgan voqealarimda zarracha yolg‘on, to‘qima yo‘q. Bular men o‘z hayotimda ko‘rgan-kechirgan, bugun ham kundalik hayotimizda, ko‘z oldimizda sodir bo‘layotgan oddiy haqiqatlar, xolos.

Bugun O‘zbekistonda adabiyot rivoji va ijodkorni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasidagi keng ko‘lamli islohotlarni his qilmaslik va e‘tirof etmaslik adolatdan emas.

Yurtimizda nishonlanayotgan ulug‘ ajdodlarning yubiley sanalarini olasmizi, hududlarda barpo bo‘layotgan muhtasham kutubxonalar, ma‘naviyat maskanlari yoki minglab iqtidorli o‘quvchilarni voyaga yetkazayotgan ijod maktablarini olasmizi, ona tilimiz rivoji yo‘lidagi intilishlarni olasmizi — **bularning barchasida davlatimiz rahbarining adabiyotga mehr-muhabbati mujassamdир.** Bu g‘amxo‘rlik mohiyatan millatning taqdirini o‘ylash, jamiyatni ma‘rifatli qilish, odamlarni uyg‘otish va ular **ularda yangicha dunyoqarashni shakllantirish kabi ulug‘vor maqsadlarni ko‘zlaydi.**

Bir ijodkor sifatida Prezidentimizning adabiyotga yuksak e‘tibori, o‘z shoirini ardoqlaydigan shunday yurtda yashayotganimdan faxr hissini tuyaman. Shuningdek, shu e‘tibor va qadrga munosib bo‘lish mas‘uliyatini dildan anglayman.

Vatanimizda emin-erkin ijod qilish, ijodkor uchun butun dunyo havas qilgulik hamma zarur sharoit mavjud. Eng muhimi, adabiyotni sevadigan rahbarimiz, kitobxon xalqimiz bor. Biz, ijodkorlar jo‘shqin davrimiz ruhi, o‘quvchilar ehtiyojlarini his qilib, badiiy yetuk asarlar yaratishimiz kerak. Atoqli shoir Shavkat Rahmon yozganidek, “Endi ishlash kerak bu kengliklarda...”.

Tahlil

QADRLANGAN INSON QANOT YOZADI

YOXUD HUQUQDAN ILHOM, ISHONCHDAN BREND: SIRDARYODA BOSHLANGAN PARVOZ

Bugungi globallashgan dunyoda davlatlar nafaqat iqtisodiy o‘shish, balki xavfsizlik, oziq-ovqat ta’minoti, energiya resurslari va milliy barqarorlik uchun ham keskin raqobatga kirishgan. Geosiyosiy ziddiyatlar, iqtisodiy inqirozlar, savdo urushlari, valyuta kurslaridagi beqarorlik va ekologik muammolar tufayli dunyoning yetakchi davlatlari ham o‘z taraqqiyot strategiyalarini qayta ko‘rib chiqmoqda.



Sardor TOLLIBOYEV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Shu murakkab sharoitda o‘z oldiga aniq va mustahkam maqsad qo‘ygan davlatlar uchun barqaror rivojlanish yo‘llaridan biri mahalliy sanoatni qo‘llab-quvvatlashdir. Chunki har bir rivojlangan davlatning otida kuchli biznes, faol xususiy sektor va zamonaviy, raqobatbardosh milliy brendlar turadi.

Yurtimizda bu borada muhim ishlar qilinmoqda. Lekin bu faqat qog‘ozdagi rejalar va statistik ko‘rsatkichlar orqali emas, balki joylarda yaratilayotgan real imkoniyatlar, tadbirkorlarning huquqiy madaniyatini oshirish va ularni davlat bilan teng sherik darajasiga olib chiqish orqali amalga oshirilmoqda.

Bir zamonda, bir yurtida yashagan, ammo hayoti va dunyoqarashi turfa insonlarni ko‘rib, bugunga qadar shakllangan qarashlarning, hayotga munosabatning o‘zgarishi mumkin. Ularning yutuqlarini ko‘rib quvonasan, ich-ichingdan faxringa aylanadi. O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Biznes ombudsman devoni OAV vakillari uchun Sirdaryo viloyatiga tashkil etgan press-tur ana shunday teran taassurotlarga boy bo‘ldi. Safar davomida mahalliy sanoatni rivojlantirish yo‘lida tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan insonlar

“Izlagan imkon topar”, degan naql bor. Bugun shu gapning jonli tasdig‘ini ko‘ryapmiz: izlaganlar uchun imkoniyatlar bor — u endi faqat chet eldan emas, o‘z yurtimizdan ham topilyapti. Eng muhimi, yurtimizda shunday muhit, shunday zamin yaratilyaptiki, odam o‘z ona tuprog‘ida qolib, halol mehnati bilan ro‘zg‘or tebratishi, oilasi bag‘rida baxt topishi mumkin.

bilan suhbatlashdik, ularning muammolarini eshitdik. Tadbir “Milliy brendlar orqali global bozorga: Sirdaryoda tadbirkorlarning huquqlari va biznes imkoniyatlari” mavzusiga bag‘ishlandi.

Bugungi kunda tadbirkorlik faqat ishning ustasi bo‘lish bilan chegaralanmaydi. Chunki hayotda yoki ijtimoiy tarmoqlarda bu yo‘lda astoydil mehnat qilayotgan, ammo birgina hujjat mohiyatini tushunmagani yoki davlat tomonidan berilgan imkoniyatlarni bilmagani bois, yo‘li to‘silayotganlar ko‘p uchraydi. Ya‘ni bugungi ishbiarmon qonunni bilishi, o‘z huquqini himoya qila olishi va davlat idoralari bilan teng munosabatda bo‘lishi talab etiladi.

So‘nggi yillarda tadbirkorlar huquqlari himoyasiga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Ular faqat himoya qilinayotgani emas, balki faoliyati rivojlanishi uchun qator sharoitlar yaratilgani ham quvonarli. Ammo “guruch kurmaksiz bo‘lmas” deganlaridek, bu sohada ham turli muammolar mavjud.

Masalan, Biznes ombudsman institutining so‘nggi 8 yillik faoliyati davomida tadbirkorlardan 50 mingga yaqin murojaat

himoya qilinmoqda. Bunda yaratilgan imkoniyatlar tufayli hududda yangi sanoat zonalari barpo etilib, yuzlab yurtdoshimiz ish bilan ta‘minlanmoqda.

Safarimiz davomida birinchi manzil 2017-yildan buyon Sirdaryoda turli ishlab chiqarish yo‘nalishlarida faoliyat yuritayotgan “WANG DA GROUP” korxonasi bo‘ldi. 2020-yilda metalloprokat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha yangi loyihasini amalga oshirish arafasida induksion pechlardan foydalanishga joriy etilgan taqiq tufayli korxona murakkab iqtisodiy ahvolda tushib qolgan. 2021-yilda Prezidentning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti chog‘ida korxona tomonidan ushbu masala ko‘tarilgandan so‘ng tegishli qarorga qo‘shimcha kiritilib, belgilangan xavfsizlik talablari asosida induksion pechlardan foydalanishga ruxsat berilgan.

— Murakkab metall konstruksiya mahsulotlari ishlab chiqarish va o‘rnatishga ixtisoslashgan korxonada 200 dan ortiq ishchi bor. Yiliga 10 ming tonna mahsulot ishlab chiqariyapti. Mahsulotlar ichki bozordan tashqari Qozog‘iston, Tojikiston kabi qo‘shni

davlatlarga ham eksport qilinaypti, — deydi korxona ish boshqaruvchisi A‘zamjon Abdurazzoqov.

Korxona faoliyati bilan tanishar ekanmiz, metallga shakl berib, yillar davomida shu yerda mehnat qilayotgan Bahrom aka Baratov bilan suhbatlashdik. Kamgap, kamtarin usta qo‘shni tumanidan kelib ishlashga qaramay, korxonaning xodimlar uchun ajratilgan yotoqxonasida yashashini, mehnati orqasidan farzandlarini o‘qitib, katta qilayotganini aytdi.

Ekologik toza qurilish: “Eurasia Gaz Beton” tajribasi

Bugun yurtimizda qurilishlar ko‘lami keng. Buning samarasida ko‘p insonlar boshpanali bo‘lmoqda, qanchadan qancha yoshlar chet eldagidan ko‘ra o‘zimizdagi qurilishlarda mehnat qilishni afzal bilmqda. Bu esa har bir fuqaroning yuragida umid, ko‘nglida iftixor uyg‘otadi.

Safarimiz davomida navbatdagi manzilimiz “EURASIA GAZ BETON” korxonasi bo‘ldi. Korxona 2019-yilda tashkil etilgan bo‘lib, Niderlandiyadan olib kelingan zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan. Yiliga 450 ming kub metr gazoblok ishlab chiqarish, shuningdek, 6 million dollarlik mahsulot eksport qilish imkoniyatiga ega.


Boshqa ko‘plab xususiy tashabbuslar singari bu korxona ham faoliyat boshlagan dastlabki yillarda turli to‘siqlarga duch kelgan. Korxona rahbari Sherzod Vafoyevning ma‘lum qilishicha, zavod qurilishi karantin davriga to‘g‘ri kelgani sababli o‘z muddatida yakunlanmagan va natijada soliq organlari tomonidan 3,3 milliard so‘m miqdorida mol-mulk solig‘i hisoblangan. Biznes ombudsman



tomonidan mas‘ul tashkilotlar ishga jalb etilgan va qayta hisob-kitob natijasida mazkur soliq miqdori noqonuniy deb topilib, bekor qilingan.

Bugungi kunda korxona faqat gazoblok ishlab chiqarish bilan cheklanib qolmay, uni qayta ishlash imkoniyatiga ham ega. Bu mahsulotning yana bir muhim afzalligi ekologik tozaligidir. Shuningdek, gazoblok issiq va sovuqni yaxshi ushlab turadi, qurilish tezligi va mustahkamligini ta‘minlaydi. Ya‘ni bugungi bozorda nafaqat arzon, balki tabiat va inson salomatligi uchun xavfsiz qurilish materiallariga ehtiyoj yuqori bo‘layotgan bir paytda bunday mahsulotlarning ahamiyati tobora ortyapti.

“EURASIA GAZ BETON” faoliyati nafaqat tadbirkorlik tashabbusi, balki zamonaviy,



ekologik mas‘uliyatli ishlab chiqarishga namuna sifatida ham e‘tirofqa loyiq.

Mehnatni qilgan boshqa, rohatini ko‘rgan boshqa bo‘lardi

Bugun yurtimiz iqtisodiyotida yetakchi o‘rinlardan birini egallab turgan sohalardan biri, shubhasiz, to‘qimachilik sanoatidir. Mazkur soha nafaqat eksport salohiyati, balki aholi bandligini ta‘minlashda ham muhim o‘rin tutadi. Press-turning navbatdagi manzili “POLY TEX SIRDARYO” mas‘uliyati cheklangan jamiyati bo‘ldi. Birgina ushbu korxonaning o‘zida 500 ga yaqin ishchi mehnat qilmoqda, ularning asosiy qismi xotin-qizlar.

Korxona sexlaridagi zamonaviy uskunalarining ishlash jarayonini kuzatar ekansiz, hayratingizni yashirish qiyin. Texnika deyarli barcha og‘ir ishni o‘zi bajarmoqda. Kompyuter orqali boshqariladigan jarayonlardan tashqari, asosan, uzilgan iplarni ulash, kalavalarni almashtirish singari oson harakatlar ayollar tomonidan bajarilmoqda.

Yaqin yillargacha yurtimizda “paxta siyosati” avj olgan edi. Minglab ayollar etalabdan kechgacha dalalarda ishlashga majbur bo‘lardi. Paxta ekishdan tortib, ketmon ko‘tarib chopiq qilish, kuzda so‘nggi ko‘saklarni terib olish — bularning barchasi arzimas haq evaziga edi. Eng alamli, ularning mehnati natijasida terilgan paxta xomashyo sifatida boshqa davlatlarga sotilar, qayta ishlangan holda esa ikki barobar qimmat narxda o‘zimizga qaytarilardi. Ya‘ni mehnat qilgan boshqa, rohatini ko‘rgan boshqa bo‘lardi.

“POLY TEX SIRDARYO” MCHJ 2011-yilda tashkil etilgan bo‘lib, Germaniya texnologiyasi asosida ip-kalava ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Korxona yiliga 6 ming tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga, 8 million dollarlik eksport salohiyatiga ega.

Korxona rahbariyati faoliyat jarayonida yuzaga kelgan muammolarni hal etishda Biznes ombudsmanga murojaat qilgan. Xususan, gaz ta‘minoti xizmati tomonidan hisoblangan 3,3 milliard so‘m miqdoridagi qarzdorlik yuzasidan amaliy yordam so‘ralgan. Biznes ombudsman masalani nazoratga olgan va tegishli tashkilotlarni jalb etgan holda “Hududguz Sirdaryo” filiali tomonidan hisob-kitob qayta ko‘rib chiqilib, murojaatda qayd etilgan ortiqcha qarzdorlik bekor qilinishiga erishilgan.

— Korxonamiz yaqin istiqbolida yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarishdan to‘liq tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tishni rejalashtirgan. Ayni paytda bo‘yoq va gazlama mato ishlab



chiqarishga ixtisoslashgan yangi sex qurilmoqda. 2025-yil yakuniga qadar bu yo‘nalishni to‘liq ishga tushirib, eksport hajmini 25 million dollarga yetkazishni maqsad qilganmiz, — deydi korxona rahbari Durbek Abdurahmonov.



Bunday islohotlar va zamonaviy yondashuvlar nafaqat mahalliy ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi, balki ayollarning mehnat bozorida munosib o‘rin egallashiga ham xizmat qiladi.

Yerga mehr, insonga e‘tibor samarasi

Press-tur yakunida Sayxunobod tumanining aholini kambag‘allikdan chiqarish borasidagi muhim tajribasi bilan tanishildi. Tanishish davomida so‘nggi yillarda odamlarda tomorqa madaniyati shakllanganini sayxunobodliklar misolida ko‘rish mumkinligiga yana bir bor amin bo‘ldim.

Yurtimiz tabiati, geografik joylashuvi, tuproq tarkibi va yer tuzilishiga ko‘ra juda turfa. Purviqor tog‘lardan tortib, keng pasttekisliklar, cho‘llar, sahrolar, daraxtlardan bo‘sh maydonlar — har biri o‘ziga xos. Ular qay darajada og‘ir sharoitda bo‘lishidan qat‘i nazar, biz uchun aziz.

Sayxunobod tumanidagi asosiy maydonlarga so‘nggi yuz yil ichidagina ekin ekila boshlangan. Ilgari bu yerlar cho‘l va sho‘rxok edi. Lekin mehnatkash, yurakdan el-yurtini sevuvcu xalqimiz shu yerga mehr qo‘ydi. Uni issig‘ida ham, sovuq‘ida ham, sho‘r suvida ham yaxshi ko‘rdi. Zero, yurak bilan mehr qo‘yilgan yer tanni boqadi, qalbni to‘ydiradi.

Mirzacho‘lni o‘zlashtirish jarayonida turli hududlardan bu yerga odamlar ko‘chib keldi. Ular qo‘llariga ketmon, yelkalariga umid olib, bir vaqtlar xom, ishlanmagan cho‘lni obod makonga aylantirdi. Qumdag qadamlar izga, izlar yo‘lga, yo‘llar esa hayotga aylandi. Bu yerlarda ota-bobalarimiz tinimsiz mehnat bilan sho‘r tuprogni “tillashtirdi”. Ular yerni shunchalik mehr bilan sug‘ordilarki, bugungi avlod unda hayot va baraka topa boshladi.

Ammo yillar davomida qon-qonimizga singib borgan boqimandalik kayfiyati tomorqaga nisbatan bee‘tibor munosabatni shakllantirdi. Yer, suv bor, biroq tajriba yetishmasligi ortida ko‘plab insonlar, yoshlar o‘zga yurtlarga mardikor bo‘lib ketdi. Unumdor yerlar esa bezador makka yetishtirishga ixtisoslashdi. Jumladan, Sayxunobod tumanida ham aholi tomorqasi achinarli ahvolda edi.

2024-yil bahorida Prezidentimiz Sayxunobod tumaniga tashrif buyurib, “har bir xonadon 1 sotix yerdan kamida 1-2 million so‘mlik daromad olishi mumkin”, degan g‘oyani ilgari surdi. Bu g‘oya ortida odamlarni o‘z mehnati bilan yashashga o‘rgatish, boqimandalikdan

chiqarish, bir so‘z bilan aytganda, insonni uyg‘otish niyati yotar edi.

Shundan so‘ng tumanda Sayxunobod tajribasi boshlandi. Har bir xonadondagi yer, suv, sharoit o‘rganildi. Kim nima qila oladi — shunga yarasha maslahat berildi. Kimgadir issiqxona kerak edi, kimdir parranda boqishni xohlardi? Ammo hammaga emas — ko‘nglida ishlashga istagi borlarga. Chunki yer ham, suv ham bor, lekin ko‘ngil uyg‘oq bo‘lmasa, natija chiqmaydi.

Bizga hamroh bo‘lgan Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘lim boshlig‘i Shoira Shamatova: “Ikki



qo‘shni — yer ham bir, suv ham, imkoniyat ham. Birining hovlisi obod, yuzi yorug‘. Ikkinchisi esa kambag‘allar ro‘yxatida. Farq qayerda? Farq odamning hayotga munosabatida, irodasida”, deya odamlarning dunyoqarashidagi o‘zgarishga urg‘u berdi.

Sayxunoboddagi bu tajriba shunchaki iqtisodiy loyiha emas. Bu insonni o‘ziga qaytarish, unga “baliq” emas, “qarmoq” berish tajribasidir. Kambag‘allikdan chiqishning eng samarali yo‘li inson ongini uyg‘otish, unga “men ham qila olaman”, degan fikrni singdirishdir. Boshqa hamma narsa shundan keyin keladi.

Albatta, qisqa fursatda bu tajriba meva bera boshlaydi. Ilgarilari “mening qo‘limdan hech narsa kelmaydi”, deganlar endi bozorga mahsulot olib chiqib sotmoqda. Bugun deyarli 70 foiz sayxunobodlik tomorqasidan unumli foydalanib, xalqimiz dasturxoniga mahsulot yetkazib bermoqda. Buning ortida esa o‘zining ro‘zg‘origa ham qut-baraka kirmoqda.

Ilk manzilimiz Turon mahallasida yashovchi 75 yoshli otaxon Tursunboy Oripov xonadoni bo‘ldi. Xonadon tomorqasiga o‘tar ekansiz, bir ajoyib manzara ko‘zingizni qvnatadi. Tomorqa maydonining 13 sotixidagi uzumzor insonning naqadar qo‘ligul ekanini ko‘rsatadi. Odatda Sirdaryo desa, ko‘z oldimizda qovun-tarvuz jonlanadi. Lekin bu xonadonni ko‘rib, odam peshona teri bilan har ishga qodirligiga yana bir bor amin bo‘lasiz.

Yiliga 50 million so‘mgacha daromad olaman, undan tashqari qo‘shnilarimga beraman, — deydi Tursunboy Oripov. — Dam olmasanmi, qariganda ishlab nima qilasan deyishadi. Men dam olish uchun dunyoga kelmaganman. Mehnatlarim, odamlarni ishlashga da‘vatim tufayli davlatimiz rahbari e‘tiboriga tushdim — yer yumshatadigan traktor berishdi. Qayerda bo‘sh yotgan yerni ko‘rsam, g‘ashim keladi, yerga ichim achiydi.

Tursunboy ota singari odamlar bor ekan, bu yurtda umid so‘nmaydi. Chunki yurakdan mehnat qilgan insonning qo‘lida har qanday yer gullab-yashnaydi. Uning so‘zlari birovgva maslahat, birovgva nasihat, biroov uchun esa to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi chiroqdek.

Davlatimiz rahbari tashrifidan so‘ng Tursunboy ota Sayxunobod tajribasi asosidagi faoliyatini yana kengaytirdi. Eng muhimi, yillar davomida xorijda ishlab yurgan o‘g‘lini qanoti ostiga oldi. O‘g‘li Azamatning kichikligidan tovuq boqishga qiziqishi borligi uchun davlatdan kredit olib, tovuq boqishni yo‘lga qo‘ydi.

— Men o‘n yil oldin imkonsizlikdan Rossiyaga ketganman, o‘shanda ham parrandachilikni yo‘lga qo‘ymoqchi bo‘lib, juda ko‘p to‘siqlarga uchraganman, — deydi Azamat. — Hozir O‘zbekistonda imkoniyatlar kengayibdi, o‘tgan yili 500 ta tovuqdan, tasavvur qiling, har kuni 495 ta tuxum olardim. Hech qancha tuxumga talab pasmayagan. Germaniyadan keltirilgan tuxumdan ochirilgan 2000 ta

jo‘ja boqaypman. Har biri 10 ming so‘mlik jo‘jalarim ustiga har ikki kunda ikki ming so‘mdan qo‘shilmoqda. O‘tgan kuni donasini 24 mingdan so‘rashgandi, mana, bugun 26 ming so‘mga chiqdi. Keyinchalik ularning sonini 100-200 mingga yetkazish niyatim bor.

“Izlagan imkon topar”, degan naql bor. Bugun shu gapning jonli tasdig‘ini ko‘ryapmiz: izlaganlar uchun imkoniyatlar bor — u endi faqat chet eldan emas, o‘z yurtimizdan ham topilyapti. Eng muhimi, yurtimizda shunday muhit, shunday zamin yaratilyaptiki, odam o‘z ona tuprog‘ida qolib, halol mehnati bilan ro‘zg‘or tebratishi, oilasi bag‘rida baxt topishi mumkin.

Bir so‘z bilan aytganda, har bir taraqqiyot insonidan boshlanadi. Inson o‘z hayoti uchun mas‘uliyatni his eta boshlasa, uning faoliyati ortidan butun jamiyat taraqqiy etadi. Bu faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali emas, balki inson qalbidagi ishonch, fidoyilik va vatanga sadoqat tuyg‘ulari bilan o‘lchanadi.

Sirdaryo viloyatida kechayotgan islohotlar, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, mahalliy sanoatni tiklash va inson salohiyatini rivojlantirishga intilishlar aynan shu tuyg‘ular asosida yuzaga kelmoqda. Bu islohotlar ortida raqamlar, qonunlar va qarorlar emas, balki inson taqdiri, oila farovonligi va yurt ravnaqi turibdi.

Tursunboy ota va u kabi minglab mehnatkash insonlar faoliyati shunga dalilki, qadrlangan inson qanot yozadi, imkoniyat berilgan inson jamiyatni o‘zgartirishi mumkin. Bu milliy tiklanishning, iqtisodiy mustaqillikning va ma‘naviy yuksalishning bosh shartidir.

Shu nuqtayi nazardan qaralsada, tadbirkorlik bugun faqat biznes emas, balki javobgarlik, adolat va fidoyilik maktabidir.

Hakim Yo‘ldoshev olgan suratlari.



Yuksalish pallasi

Prezidentimiz raisligida shu yil 15-may kuni maktab ta’limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo’yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida ko’plab masalalar muhokama etildi. Xususan, ilg’or xorijiy tajriba asosida maktabga tayyorlov guruhlari va boshlang’ich ta’lim o’quv dasturlari o’zaro uyg’unlashishi, buning uchun bog’cha bolalarini matematika, tabiiy fanlar va texnologiya yo’nalishlarida tanqidiy va kreativ fikrlashga o’rgatadigan dasturlar ishlab chiqilishi zarurligi ta’kidlandi. Shuningdek, bog’cha tarbiyachilarining malakasi, mahorati va psixologik tayyorgarligini oshirish uchun kasbiy sertifikatlash tizimi joriy etilishi aytib o’tildi.

Ayni paytda yurtimizda 7000 ta davlat va 31 mingdan ziyod xususiy bog’cha faoliyati yo’lga qo’yilgan. Olti yoshli bolalarning 96 foizi maktabga tayyorlov guruhlarga qamrab olingan. Keyingi yili bu raqam 100 foizga chiqishi kutilayotir.

Ilgari

Uzoq emas, bundan 7-8 yil ilgari ham bolajonlar bog’chalar yo’qligi tufayli maktabgacha ta’lim xizmatlaridan bebahra edi. Bu maktabga chiqqan bolaning darslarni o’zlashtirishida yaqqol ko’zga tashlanar, o’z o’rnida tayyorgarlik kelgan o’quvchi bilan ishlash pedagog ham murakkablik tug’dirardi. O’lis va chekka hududlarda bolalarning zamon bilan hamnafas tarzda sifatlari ta’lim-tarbiya olishini ta’minlash maktabgacha ta’limning muqobil innovatsion shakllari zaruratini yuzaga keltirayotgandi. Ko’rilgan choralar, amaliy sa’y-harakatlar tufayli markazdan uzoqda yashovchi bolalarga maktabgacha ta’lim xizmatini ko’rsatishga mo’ljallangan “Aqlvoy” avtobuslari esa bu muammoga yechim bo’ldi. Quyosh batareyasi, sovitkich, issiq va sovuq suv bilan ta’minlangan avtobusda bolalar maktabgacha ta’lim olishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Unda o’quv-tarbiya jarayoni “Ilk qadam” dasturi bo’yicha olib borilmoqda.

“Qishlog’imizga “Aqlvoy” keldi”

G’uzor tumani Qashqadaryo viloyatining janubi-sharqida joylashgan. Uzoqda Hisor tog’ tizmasining janubi-g’arbida Langar tog’i ko’zga tashlanadi. Pachkamar suv ombori sohilidagi bu kichik tog’lar shimoli-sharqdan janubi-g’arbga yo’nalgan G’uzor adirlariga tutashib ketgan. Ana shu kengliklar oritadagi qishloqlarda yuzi quyoshda qoraygan, ko’zi bilim olish ishtiyoqida yonib turgan bolalar har kuni ko’chma bog’chaga qatnaydilar. U yerda olam va odam haqidagi o’nlab savollarga javob, muammolarga ijodiy yechim izlanadi. Rasmlar chiziladi, ranglar, yangi so’zlar o’rganiladi.

Tuman markazidan o’lis va chekkada joylashgan “Yakkadaraxi” va “Mevazor” MFYlarga “Aqlvoy” avtobuslari kelganiga hali uncha ko’p vaqt bo’lgani yo’q. Avtobus o’zi bilan birga bolalarga o’yinchoq, kitob-dafdar, qalam, rubika, planshet yoki noutbuk, qisqasi, bilim olib keldi. Jajji kchalarga quvonch, oilalarga xotirjamlik ulashdi.

— Farzandim Dilxush 5 yoshda, — deydi “Yakkadaraxi” MFYda yashovchi Oydin Yangiboyeva. — Mahallamizda bog’cha yo’qligi uchun o’g’lim maktabga chiqishga tayyorgarlik ko’rolmasdi. Bolalarning bilimsiz qolishidan xavotirda edim. Bir kuni qishlog’imizga “Aqlvoy” avtobusi kirib keldi. Bolalarning xursandligini ko’rganingizda edi. Hozir o’g’lim avtobus-bog’chaga borishni

Joriy yil 15-may kuni maktab ta’limi tizi-midagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo’yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o’tkazilgan videoselektorda yangi O’zbekistonni barpo etish yo’lida sog’lom, bilimli, teran fikrli, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun barcha sharoitlarni yaratish shartligi ta’kidlangan edi.

Yig’ilishda o’quvchilarning bo’sh vaqtini mazmunli o’tkazishga ham alohida e’tibor berilgan, shuningdek, yozgi ta’tilda ularni oromgohlar va foydali mashg’ulotlarga jalb etish, sport musobaqalari, intellektual o’yinlar va san’at kechalarini o’tkazish bo’yicha aniq vazifalar belgilangan edi. Shunga binoan har bir ta’lim muassasasida “Dolzarb 90 kun” tadbirlari boshlandi. Albatta, bu jarayon ham ta’lim-tarbiyaning ajralmas qismidir. O’quvchilar yozgi ta’tilda bilimni mustahkamlaydi, kasb-hunarga oshno bo’lib, sport mashg’ulotlari orqali sog’lom hayot sari qadam tashlaydi.

Yoshlikda olingan bilim, o’zlashtirilgan hunar, hayotiy ko’nikmalarning inson kamolotidagi ahamiyati beqiyos. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida ilmu hunar o’rganish juda muhim. Chunki bo’sh vaqti samarasiz o’tgan yosh behuda ishlarga berilishi oson bo’ladi. Shu bois, bu jihatga har qachongidan ko’proq e’tibor qaratilmoqda.



QAMROV SALKAM

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDAGI O’ZGARISHLAR OLIS QISHLOQ ODAMLARI HAYOTIDA NAMOYON BO’LMOQDA

kanda qilmaydi. Har kuni ertalab katta qiziqish bilan “Aqlvoy” tomon yuguradi. Sonlar, yangi yodlagan so’zlarini aytib beradi. She’rlar yodlaydi. O’yinlar o’ynaydi.

Bu mo’jaz ko’chma bog’cha qishloqdagi maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinmagan o’nlab qorako’zni o’z bag’riga oldi. Bugun har bir mahallada 25 bola ikki smenada “Aqlvoy”ga qatnayapti. Ikki mahallada ham avtobekat qurilgan. Unda ayvoncha va yashil maydoncha bo’lib, bolalar uchun mo’ljallangan arg’imchoqlar ham o’rnatilgan. Bolalar bu o’yingoh va avtobuslarda qiziqarli o’yin shaklidagi mashg’ulotlarda qatnashadi.

— O’zim pedagogman, maktabda dars beraman, — deydi Mevazor mahallasida yashovchi Klara Daminova. — Bugunning bolalari bilan ishlash oson emas. Ko’p vaqtim maktabda, shogirdlarim bilan o’tadi. Buning ustiga turmush tashvishlariga ko’milib, farzandim ta’limiga uncha e’tibor berolmayotgandim. Qishlog’imizga “Aqlvoy” kelgani juda yaxshi bo’ldi-da. Qizim Dunyo Dehqonboyeva 5 yoshda, hademay maktabga chiqadi. U hozir avtobus-bog’chada o’qib, yozish, muloqot qilish, fikrini ravon bayon etishni ko’rganyapti. Undagi o’zgarishlarni ko’rib, quvonaman. Davlatimizning yosh avlodga e’tiboridan juda xursandman.

Insomning kelgusida qanchalar muvaffaqiyatli bo’lishi bolaligi bilan bog’liq. Shu nuqtayi nazardan, “Aqlvoy” shahar va qishloqda yashovchi bolalarning teng saviyada ta’lim-tarbiya olishi, ta’lim sifati hamda samaradorligini oshirish imkonini bermoqda.

— O’lis va chekka hududlarda ham qamrovni oshirish yo’lida viloyatda 16 ta “Aqlvoy” mobil avtobusi faoliyati yo’lga qo’yilib, 896 bola qamrab olindi, — deydi Qashqadaryo viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig’i o’rinbosari Davron Tojiboyev.

Bu birgina Qashqadaryo viloyatidagi ishlarga kichik misol. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi ma’lumotiga ko’ra, yurtimizning o’lis hududlaridagi 216 ta mahallaga qayta jihozlangan 102 ta “Aqlvoy” avtobusi yetkazildi. Ular negizida tashkil etilgan 550 ta yangi mobil guruhga 12 mingga yaqin bola qamrab olindi. Mobil guruhlarga zamonaviy fikrlaydigan, bolalar bilan do’stona munosabat o’mata oladigan, tajribali, eng yaxshi pedagoglar jalb qilindi.

Salomatlik, shaxsiyat va aql-zakovatga poydevor qo’yiladigan bir pallada kichik yoshdagi bolaning bog’chaga borishi, yaxshi ta’lim-tarbiya olishi muhim. Bu vazifani “Aqlvoy” bekam-ko’s’t ado etmoqda. Bolalar o’yin, suhbat, mashg’ulot va texnologiyalar orqali muloqotga kirishib, yoshligidan bilimga intilish ko’nikmasiga ega bo’lyapti.



Ta’lim sifatida pedagog malakasi muhim

Maktabgacha ta’lim uzluksiz o’qitishning boshlang’ich qismi bo’lib, bolaning sog’lom va rivojlangan shaxs bo’lib shakllanishini ta’minlaydi. O’qishga ishtiyogini oshiradi, tizimli o’qitishga tayyorlab boradi. Maktabgacha ta’lim sifati, birinchi navbatda, shu tizimda ishlayotgan pedagoglar saviyasi, mahorati, tayyorgarlik darajasiga bog’liq.

Shu yil 1-martidan boshlab tajriba-sinov tariqasida yurtimizning uzoq va chekka hududlaridagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari uchun mobil malaka oshirish xizmatlari yo’lga qo’yildi. Qoraqalpog’iston Respublikasi, Qashqadaryo, Navoiy va Samarqand viloyatlariga yo’l olgan mobil malaka oshirish xizmatlari 4 ta auditoriya ko’rinishidagi qayta jihozlangan avtobuslar negizida tashkil etildi. Avtobuslar 10 ta

noutbuk, 1 ta interaktiv monitor, yozuv doskasi, 1 ta internet tarqatuv qurilmasi bilan jihozlangan. Mazkur avtobuslardan uzoq va chekka hududlardagi davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun mobil malaka oshirish xizmatlari ko’rsatish, ya’ni uzluksiz kasbiy rivojlantirish (“Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati”) tadbirlarini tashkil etish maqsadida foydalanilmoqda.

Auditoriya ko’rinishida jihozlangan avtobus Qo’shrabot tumanining Zarkent, Nurobod tumanining Nurbuloq, Payariq tumanining Ko’ito’sin va Urgut tumanining Jarptepa mahallalarida joylashgan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga ham yetib bordi. Bugun bu yerdagi MTT pedagoglari

yashash va ish joyidan uzoq ketmagan holda uzluksiz kasbiy rivojlantirish, bilimni yangilab borish imkoniyatiga ega bo’ldi.

— Zamon o’zgarayapti. Tabiiyki, bolalarga ta’lim-tarbiya berishning usul va shakllari ham o’zgarib bormoqda, — deydi Qo’shrabot tumani “E’zozbek — Ziyo” oilaviy nodavlat MTT direktori Feruza Yo’ldosheva. — Auditoriya ko’rinishida jihozlangan avtobuslarda maxsus tayyorgarlik ko’rish, malaka oshirish uchun sharoit yetarli. Ilg’or pedagogik yondashuvlar, yangi metodika bolalar uchun faol, qiziquvchan va mustaqil fikrlashga undaydigan o’quv muhiti yaratishda asqataypti. Ba’zan ota-onalar mashg’ulotlarda ishtirok etadi. Qo’llanayotgan innovatsion texnologiya va metodlar, bolalardagi ijodiy o’zgarish ota-onalarda ham sifatlari ta’limiga ishonch uyg’otaypti.

O’lis hududlardagi davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun tashkil etilgan mobil malaka oshirish kurslarining o’quv dasturi 18 soatga mo’ljallangan. Bu dasturlar bolalarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, STEAM texnologiyasini qo’llash, interfaol o’yinlar o’tkazish metodikasi, didaktik qo’llanmalar, ko’rgazmali materiallar va o’yinchoqlar to’plamlaridan foydalanish texnologiyalarining mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qilmoqda.

— Maktabgacha ta’lim sohasidagi 30-yillik ish tajribamga tayansam, oldin ertangi kun mashg’ulotlariga tayyorlanish uchun o’zimiz qo’lda o’yinchoq yasay, didaktik tarqatma materiallarni yarozqiz ikkilamchi materiallardan chizib tayyorlay edik, — deydi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti bo’lim boshlig’i Gulbahor Parpiyeva. — Bugun pedagoglar uchun metodik yordam, qo’llanma



va innovatsion texnologiyalar ishlab chiqilyapti. Pedagog zamonaviy bilim va malakaga ega bo’lishi, faoliyatini samarali bajarishi uchun sharoit yetarli.

Qulay va zamonaviy shart-sharoit pedagogning kasbiy qobiliyatini rivojlantiradi, ta’limdagi islohot va o’zgarishlar haqida vaqtida xabardor bo’lishi va kasbiy yuksalishiga yordam beradi. Hayoti davomida ta’lim olish, sohadagi tendensiyalardan xabardor bo’lish raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishning muhim shartidir.

Bu sa’y-harakatlar pedagog maqomini yuksaltirish, zarur sharoit yaratish, o’z ustida ishlash va ijodkorlikka motivatsiya berish orqali maktabgacha ta’limga bolalarni qamrab olish ko’rsatkichini oshirishga xizmat qiladi.

Hech kim e’tibordan chetda emas

O’tgan yili 13-dekabrda ijtimoiy himoya sohasidagi ishlar natijadorligi va 2025-yil uchun ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida Toyloq va Kosonsoy tumanlarida faoliyat yuritayotgan “Ilk rivojlanish markazlari” tajribasi tilga olinib, viloyat hokimlariga bu tajribani o’rganib, har bir tumanda joriy etish topshirilgan edi.

Alohida ta’limga ehtiyoji bor, rivojlanishi sust bolalarning uyiga borish orqali hayotiy ko’nikmalarini 3 ta model asosida rivojlantirishni ko’zda tutuvchi bu xizmat bepul amalga oshirilib, bolalar markazdan maktabga yo’naltiriladi.

— Hech kim farzandining kasal bo’lishini istamaydi. Ammo taqdir ekan, o’g’lim Abdulla Umarjonov trombozit purpura kasalligi bilan og’rigan. Bu kasallikka chalinganning qonida trombosit soni kamayadi. Farzandim an’anaviy bog’chaga bora olmaydi. Shu bois, tumanimizdagi “Ilk rivojlanish markazi” mutaxassislari uyimizga kelib dars o’tadi. Bolam bilim olishda tengdoshlaridan ortda qolayotgani yo’q. O’qish-yozishni to’liq o’rgandi. Hozir “Alifbe”ni yakunlash arafasida, — deydi Kosonsoy tumani Ko’kimboy qishlog’ida yashovchi E’zoz Mahkamova. — Tarbiyachilar shirinso’z, mehribon. Diqqat-e’tibor bilan dars o’tadi. O’zimga ham zarur vazifalarni yetig’i bilan tushuntiradi, farzandim tarbiyasiga oid qimmatli maslahatlar beradi. Ulardan juda minnatdorman.

Loyiha doirasida oilalarni kambag’allikdan chiqarish, ijtimoiy ahvolini yaxshilashga ko’maklashiladi. Ish topish, nafaqa olish, bolalarni tibbiy ko’rikdan o’tkazish, ishga joylashishda psixologik ijtimoiy yordam beriladi. Xasta dillarga malham, siniq ko’ngillarga yorug’lik ulashayotgan bu loyiha bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlash barobarida yoshi, individual imkoniyati, qobiliyati va ehtiyojlariga mos ravishda jismoniy, aqliy va ma’naviy rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Alohida ehtiyojli bolalarga individual ta’lim dasturlari, shuningdek, zamonaviy inklyuziv maktabgacha ta’lim-tarbiya olish imkonini beruvchi qulay muhit yaratilgan. Bu bolalarda vatanga muhabbat, oilaga, xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga, atrof-muhitga hurmat tuyg’ularini shakllantirishi shubhasiz.

— 2025-2028-yillarda Kosonsoy va Toyloq tumanlari tajribasi asosida ehtiyojdan kelib chiqib, 208 ta tuman (shahar) da bosqichma-bosqich har yili o’rtacha 50 tadan “Ilk rivojlanish markazi” faoliyati yo’lga qo’yiladi, — deydi Gulbahor Parpiyeva. — Bu jarayonda 3 ta model asosida maktabgacha ta’lim olish imkoniyati bo’lmagan, kam ta’minlangan, alohida ta’limga ehtiyoji bo’lgan oilalar farzandlari qamrab olinadi.

Ko’lam kengaymoqda

Maktabgacha ta’limga qamrab olinmagan 6 yoshli bolalar uchun bepul majburiy tayyorlov guruhlari tashkil etilyapti, oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati yo’lga qo’yilmoqda.

Davlat-xususiy sheriklik tizimining dastlab maktabgacha ta’limda joriy etilishi bolajonlar qamrovi oshishi, sohada tadbirkorlik va nodavlat sektor rivojlanishiga keng imkoniyat ochdi. Tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar berilgani, bolalarni o’qvatlantirish va tibbiy xizmat sifati oshirishga davlat byudjetidan subsidiyalari ajratilgani qamrov kengayishida muhim omil bo’layotir. Bu xayrli ishlar kelgusida yangicha mazmun va ko’lm bilan davom ettiriladi.

Barcha bolalar uchun teng va sifatlari ta’lim intellektual rivojlangan avlodni kamolga yetkazishda juda muhim. Millatning kelajagiga sarflagan investitsiya bir kun mevasini berishi, kelgusida vatan ravnaqi yo’lida kambarbasta bo’ladigan bilimli, salohiyatli, har jihatdan yetuk avlodni voyaga yetkazishi shubhasiz.

Risalat MADIYEVA, “Yangi O’zbekiston” muxbiri

Iqtidorli yoshlar — mamlakat kelajagi

YOZ — O’SISH VA O’RGANISH FASLI

NAVOIYLIK O’QUVCHILAR

“DOLZARB 90 KUN”NI QANDAY O’TKAZMOQDA?



“Dolzarb 90 kun” doirasida mamlakatimizdagi 7 million o’quvchini madaniy-ma’rifiy va sport tadbirlariga jalb qilish ko’zda tutilgan. Jumladan, Navoiy viloyatida ham o’quvchilarning bo’sh vaqtini tashkil etish yuzasidan tizimli ishlar bajarilmoqda.

— Viloyatimizda “Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida viloyat, shahar va tumanlar hamda mahallalarda zarur chora-tadbirlar dasturlari tasdiqlangan. Unga ko’ra, har kuni belgilangan tadbirlar o’tkazilmoqda. Yoshlar mahallalarda tashkil etilayotgan loyihalar orasidan sport, kitobxonlik bahslari hamda madaniy-ko’ngilochar tadbirlarga ko’proq qiziqmoqda. Faollikni oshirish maqsadida tanlov va sport musobaqalarida g’olib

bo’lgan yoshlar gala konsertlarda tantanali taqdirlanaypti, — deydi Yoshlar ishlari agentligi Navoiy viloyati boshqarmasi boshlig’i Umid Bahromov. — 90 kun davomida viloyatda 31 ming 464 ta tadbir, loyiha va musobaqalar o’tkazish rejalashtirilgan. Buning uchun barcha tashkilot va muassasa bilan hamkorlik yo’lga qo’yilgan. Boshqarma tomonidan iyun oyida o’tkaziladigan 10 ming 488 ta loyiha rejasini tasdiqlangan.

Yoshlarning bo’sh vaqtini o’tkazish bo’yicha “Dolzarb 90 kun” doirasidagi tadbirlar ta’lim muassasalarida ham tizimli ravishda tashkil etilmoqda. Navoiy shahridagi 16-maktab ham bu borada faollik ko’rsatmoqda. Ushbu ta’lim maskanida 2736 o’quvchi o’qiydi. Ularning



2171 nafari iqtidori va qiziqishiga qarab, turli to’garaklarga jalb etilgan. Ayniqsa, kitobxonlik to’garigida yoshlar soni kundan kunga ko’paymoqda.

— Ayni vaqtda o’quvchilarning ta’tildagi bo’sh vaqtini mazmunli o’tkazish maqsadida maktabimizda fanlar bo’yicha o’quv kurslari, to’garaklar tashkil etilib, turli tanlovlar, sport musobaqalari va madaniy-ma’rifiy tadbirlar o’tkazilmoqda, — deydi Navoiy

shahridagi 16-maktab direktori Odiljon Boboqulov. — Qolaversa, maktabimizda teatr guruhlari ham tashkil etilib, o’quvchilar turli mavzudagi asarlardan parchalarni sahnalashtirmoqda. Yozgi ta’til bo’lishiga qaramay, maktabimiz har qachongidan ham gavjum. O’quvchilarimiz tadbirlarda faol ishtirok etmoqda.

Bu kabi tadbirlar viloyatning boshqa shahar va tumanlarida ham uyushqoqlik bilan tashkil

etilmoqda. Jumladan, Karmana tumanidagi 32 ta maktabning barchasida “Dolzarb 90 kun” doirasida belgilangan vazifalar ijrosi ta’minlanmoqda. Tumandagi 32-maktabning 210 o’quvchisidan 176 nafari 10 ga yaqin to’garakka jalb etilgan.

Ushbu maktab tumandagi yangi massiv aholisi uchun o’tgan yili qurib berilgan edi. Shinam, barcha imkoniyatga ega muassasa bugun chin ma’noda o’quvchilarning sevimli maskaniga aylangan. Yosh pedagoglar jamoasi esa to’garaklarda o’quvchilarga bilim beryapti.

— Maktabimizda “Dolzarb 90 kun” doirasidagi tadbirlarni o’tkazish uchun barcha imkoniyat va sharoit yaratildi, — deydi Karmana tumanidagi 32-maktab direktori o’rinbosari Umida Bekmurodova. — “Mohir qo’llar”, “Yosh rassomlar”, “Kitobsevarlar”, “Dutorchi qizlar” kabi bir necha to’garak faoliyati yo’lga qo’yildi. O’quvchilar qiziqishiga qarab yo’nalishlarni tanlaydi. Shuningdek, voleybol, futbol, shaxmat, shashka va stol tennis bo’yicha musobaqalar muntazam o’tkazib kelinmoqda.

Muhimi, muassasalarda ishlayotgan har bir to’garakning aniq maqsadi va yo’nalishi bor. Biri o’quvchilarni kasb-hunarga oshno etsa, ikkinchisi ranglar jilosini anglatib, tasviriy san’atga mehr uyg’otadi. Uchinchi esa cholg’u asboblariida uy chalish ishtiyoqidagilar uchun yaxshi imkoniyat. To’garaklarni tashkil etishda har bir yosh toifasining qiziqishlari inobatga olingan. Hatto kichik yoshdagi boshlang’ich sinf o’quvchilari ham e’tibordan chetda emas. Albatta, bilimli, kitobga oshno, san’atni sevadigan yoshlardan aslo yomonlik chiqmaydi.

G’olib ABDUSALOMOV, “Yangi O’zbekiston” muxbiri

BILIM, TAFAKKUR, MA’NAVIYAT VA FIDOYILIK MILLATNI QUTQARADI



XX asr boshlaridagi murakkab ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar davrida millat najotini faqat va faqat milliy tafakkurni yuksaltirish, ozod fikrli, yuksak axloqli hamda ma’rifatli avlodni tarbiyalashda ko‘rgan buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning ezgu orzulari bugun har bir sohada o‘z ijobatini topmoqda. Uning o‘lmas ijodi nafaqat qimmatli tarixiy meros, balki zamonaviy taraqqiyotimizning yo‘lchi yulduzi, milliy yuksalish yo‘lidagi muhim tayanch va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdagi ilhom manbai desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.



Bobur SHOYOQUBOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi boshlig‘i,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori,
polkovnik

Abdulla Avloniy Toshkentda tug‘ilib, tinimsiz mutolaa va izlanishlar orqali bilim cho‘qqilarini egallagan, o‘z davrining ilg‘or fikrli ziyolisi, iste‘dodli adib va yangilikka intiluvchan pedagog bo‘lgan. U 1904-yilda yangi usuldagi maktab ochib, yosh avlodga an’anaviy bilimlar bilan bir qatorda matematika, geografiya, tabiat kabi dunyoviy fanlardan, hayot uchun zarur bilimlardan saboq berishni yo‘lga qo‘ydi. Bu o‘sha davr uchun jasoratli

va inqilobiy qadam bo‘lib, nafaqat millat farzandlarining dunyoqarashini kengaytirish, balki ularning tafakkurini uyg‘otish, tahiliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, zamonaviy bilimlar bilan qurollantirib, jahon taraqqiyotidan bahramand etishga, pirovardida mustamlakachilik kishanlaridan ozod bo‘lish uchun zamin yaratishga qaratilgan edi. Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” singari darsliklari, ayniqsa, “Turkiy



fikrlash qobiliyatidan mahrum bo‘lish xavfidan Avloniy o‘sha davrlardayoq odamlarni jiddiy oghlantirgan edi. U o‘zligini unutgan, ma’naviyatidan, tarixidan begonalashgan, o‘z taqdiriga befarq qaraydigan millatning kelajigi bo‘lmasiligini, bunday holat faqat tanazzulga, quillikka va xorlikka olib kelishini chuqur anglagan. Bunga qarshi bilimi, qalami va butun faoliyati bilan kurashgan.

Bugun mamlakatimizda milliy o‘zlikni tiklash, boy tarixiy merosimizni asrab-avaylash va keng targ‘ib qilish, milliy qadriyatlarini, ona tilimizni ulug‘lash davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangani, bu borada keng ko‘lamli amaliy ishlar qilinayotgani Avloniy orzulari ushlayotganining hayotdagi yorqin ifodasidir.

Yangi O‘zbekistondagi keng qamrovli va izchil islohotlar zamirida ham aynan milliy tafakkurni yuksaltirish, xalqning, ayniqsa,

yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularni vatanparvarlik, milliy iftixor, qonunga hurmat va yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlar mujassam. Mamlakatimizning Markaziy Osiyoda va jahon hamjamiyatida o‘z munosib o‘rnini topib, nufuzi ortib borishi, jamiyatda ochliklik, plyuralizm, erkin fikr va so‘z erkinligi muhiti, qonun ustuvorligi qaror topishi milliy tafakkur, xalqning siyosiy ongi, huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligi qayta tiklanishi bilan uzviy bog‘liq. Ta’limni rivojlantirish, ilm-fanni qo‘llab-quvvatlash, madaniy meros obyektlarini tiklash, adabiyot va san’atga keng yo‘l ochish kabi tashabbuslar Avloniy kabi jadid bobolarimiz orzu qilgan ma’rifatli jamiyat qurish yo‘lidagi muhim qadamlardir.

Avloniyning “Inson tafakkurining quvvati va kengligi, avvalo, muallim tarbiyasiga bog‘liq” degan purma’no so‘zlari bugun ta’lim-

tarbiya tizimi xodimlari, ota-onalar va keng jamoatchilik, jumladan, mahalla instituti va fuqarolik jamiyati tashkilotlari oldiga ulkan vazifalar qo‘ymoqda. Zero, yosh avlodning har tomonlama yetuk, bilimli va yuksak ma’naviyatli bo‘lib kamol topishi uchun nafaqat o‘qituvchilar, balki butun jamiyat birdek mas’ul. Oiladagi sog‘lom muhit, ota-onaning shaxsiy namunasi, mahallaning tarbiyaviy ta’siri, nodavlat tashkilotlarning faol ishtiroki — bularning barchasi Avloniy orzu qilgan komil insonni voyaga yetkazishda muhim o‘rin tutadi.

Qurolli Kuchlar tizimida ham milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg‘usini yuksaltirish, harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini, siyosiy-huquqiy bilimni oshirish, ularni tariximiz va buyuk ajdodlarimiz merosi, xususan, harbiy san’at rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Amir Temur shaxsiyati va “Tuzuklar” asari bilan chuqur tanishtirishga alohida e’tibor qaratilayotgani ham Avloniy g‘oyalarning hayotbaxsh ta’siridan, tarbiya borasidagi kompleks yondashuvlarining bugun ham dolzarbligidan dalolat beradi.

Sohibqiron Amir Temurning hikmatlari Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish, umuman, jamiyatning barcha sohasida taraqqiyotga erishish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ham muhim dasturlamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Abdulla Avloniyning boy ma’naviy merosi, ta’lim-tarbiya, axloq-odob, milliy o‘zlikni anglash va jamiyat taraqqiyoti haqidagi teran fikrlari asrlar osha dolzarbligini yo‘qotmay, bugun ham biz uchun muhim g‘oyaviy dastur bo‘lib qolmoqda. Prezidentimizning muhim hayotiy tashabbuslari, jamiyatda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga olib chiqish borasidagi sa’y-harakatlari Avloniyning ezgu qarashlari bilan g‘oyat hamohang yangrab, yangi O‘zbekistonning ma’naviy yuksalishi, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga mustahkam zamin hozirlamoqda.

Avloniy saboqlarini chuqur o‘rganish, anglash va hayotga, har bir sohaga, har bir insonning kundalik faoliyatiga izchil tatbiq etish — barchamizning, ayniqsa, kelajagimiz egalari bo‘lgan yosh avlodning, shuningdek, davlat siyosatini yurituvchi rahbarlarning sharafli burchidir. Zero, milliy tafakkur, yuksak ma’naviyat, zamonaviy bilimlar va fidoyilik millatni buyuk va yorug‘ kelajak sari, jahonning eng rivojlangan davlatlari qatoriga ishonch bilan yetaklaydi.

Qadriyat



Hulkan HAMROYEVA,
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi dotsenti,
filologiya fanlari doktori

Usta Olim sozandalik, bastakorlik, xoreograf — baletmeysterlik sohalarini mukammal egallagan serqirra iste’dod sohibi, o‘zbek milliy sahnaviy raqs san’ati asoschilaridan biri edi. 1875-yilda Marg‘ilonda, oddiy to‘quvchilar oilasida tug‘ilgan bo‘z bola yillar o‘tib salohiyati va tinimsiz izlanishlari tufayli umumturiy iftixorga aylandi. Ota-onasi halol va kamtari insonlar bo‘lib, ilmu hunarni nihoyatda qadrlashar edi.

U bolalik va o‘smirlik yillarida juda ko‘p sozlarga qiziqdi, yallachilar, sozandalarga jo‘rnovozlikda to‘y va sayillarda el xizmatida bo‘ldi. U bir safar bolaligini eslaganda bunday degandi: “Juda kichik yoshimdin ota-onamning to‘quv dastgohi menga belanchak vazifasini o‘tagan. Ularning harakatlarini kuzatishni yaxshi ko‘rardim. Ayniqsa, ayam go‘yo atlas to‘qimasdi, balki matoga gul ekardi. Qo‘llari, barmoqlari shunchalar nafis, tez va chaqqon harakat qilardiki, gullarning shivirlashini eshitardim.

YURAK RITMLARIDAN YARALGAN SAN’AT

USTA OLIMNING IJODIY MEROSI O‘RNAK BO‘LISHGA ARZIGULIK

Xalqimiz orasida asrlar davomida madaniyatning xilma-xil shakllari rivoj topgan. Ularda Farg‘ona — Toshkent raqs maktabi milliy raqs san’atining eng qadimgi davrlariga mansub namunalarni to‘la qamrab olgani bilan alohida ajralib turadi. O‘zbek san’atining yirik vakili, O‘zbekiston xalq artisti, Usta Olim Komilov o‘z shogirdlariga Farg‘ona — Toshkent madaniyati tarixida xalq san’ati muhim o‘rin egallashini, ularning o‘z yo‘llari va o‘ziga xos ijro uslublari mavjud ekanini uqtirardi.


AYAM barmoqlarining nafosati atlas matosi uzra sarin sabolarni uyg‘otardi, ular tinmay yelar, butun xona gul iforiga to‘lar, ruhimni allalardi. Uning matoga tikilgan nigohlari barmoqlarning go‘zal harakatlariga yog‘du, sehr baxsh etardi. Ayam to‘qiyotgan matosidan ko‘z uzmas, lekin atrofini ko‘rib turardi. Men yerga tikilgan nigohlarning va tinimsiz harakat qilayotgan qo‘llarning bir-birini tushunishini, “gapirish”ini, kuylashini, quvonishini va ko‘z yoshini ko‘rsatmasdan yig‘lashini o‘shanda his qilgan bo‘lsam kerak”.

Zamonadoshlari fikricha, uni hamisha ijrodan ko‘ra ixtiro, yaratish, kashf qilish ishi qo‘proq o‘ziga tortardi. 1926-yilda Muhiddin Qoriyoqubov Marg‘ilonda ilk o‘zbek etnografik ansamblini tuzganida birinchilardan bo‘lib Usta Olimni taklif qiladi. U doira, nog‘ora, chang kabi bir necha milliy cholg‘u asboblarning mohir sozandasi va o‘ta qobiliyatli, keng ko‘lamli baletmeyster edi.

Uning ijro uslublari doira zarblarining betakrorligi va jozibadorligi, tembr vositalarining tez-tez almashishi va xilma-xilligi bilan tomoshabinni hayratga solardi.

Shogirdlari Tamaraxonim va Mukarrama Turg‘unboyeva ustozining yo‘lini davom ettirib, o‘zbek milliy raqs san’atini jahon madaniyatining gultojiga aylantirdi. 1937-yilda Moskvada o‘tkazilgan o‘zbek san’ati dekadasiida u yaratgan “Sayil va kolxoz to‘yi” raqs kompozitsiyasi katta shuhrat qozondi. “Usta Olimning qo‘li yoki nafasi tekkan har bir raqs harakati endi g‘unchalayotgan, qayta-qayta ochiladigan atirgulga o‘xshaydi: uning ko‘rinishi ham, ifori ham, shabadada oddiygina tebranishi ham o‘ta sharqona nigohlari bilan insonni o‘ziga butunlay rom qiladi, uning ta’siridan chiqa olmasiz”, degan edi XX asr jahon raqs san’atining ulkan namoyandalaridan biri Igor Moiseyev.

1935-yilda Londonda o‘tkazilgan I xalqaro san’at festivalida Tamaraxonim “Pilla” raqsini ijro etadi. Zal oyoqqa qalqib, qarsak chaladi. Tomoshabinlar istagi bilan Tamaraxonim “Paxta” raqsini ulab yuboradi. Doirachi Usta Olimning iste’dodidan hayratga tushgan Britaniya qirolichasi Mariya Lojalon hayajon bilan sahnaga chiqadi. Oddiy qo‘llar shunchalik ulug‘ mo‘jiza yaratayotganiga ishongisi kelmaydi. Ustaning qo‘llarini qayta-qayta ushlab ko‘radi. Uning farmoniga



binoan Ustaning kaftlari va panjalaridan olingan gips nusxasi hozirgacha Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Tamaraxonim va Usta Olim festivalning oliy mukofoti — oltin medal bilan taqdirlanadi.

Usta mohirbaletmeyster sifatida “Paxta”, “Shohida” kabi ilk o‘zbek baletlarini sahnalashtirishda ishtirok etdi. Zamonaviy balet sahnalarida milliy-madaniy chizgilar, milliy kolorit ustuvor bo‘lishiga intildi. Usta yaratgan “Zang”, “Gul o‘yin”, “Sadr”, “Daromadi gul o‘yin”, “Tantana”, qayta sayqallagan “Pilla” raqsleri o‘zbek san’atining umumbashariy madaniyat xazinasiga qo‘shilgan noyob durdonalari sanaladi. O‘z davrida juda mashhur bo‘lgan “Farhod va Shirin”, “Gulsara” spektakllariga raqs sahnalashtirganda ham

qadriyatlar, mahalliy urf-odatlar, madaniy an’analarga oid xalq raqs usullari bo‘rtib turishiga harakat qildi.

“Usta san’atni jonu dildan sevgani uchun ham umrini shu ulug‘ ishga tikdi. Yaratdi, o‘rgatdi, keyingi avlodlar bahramand bo‘lishi uchun marjon donalaridek sochilib ketgan xalq durdonalarini to‘pladi. U o‘zbek milliy san’atini sevguvchilar ko‘p bo‘lishini orzu qilardi. Usta go‘zal san’at ortida og‘ir va og‘riqli zahmat borligini yurak-yuragidan his etardi. Shogirdlarini hamisha izlanishga, mehnatdan qochmaslikka, milliy qadriyatlarini saqlagan holda yangilik yaratishga chorlardir. U yaratgan doirachilik maktabi va raqsiy meros hozirgi kunga kelib Farg‘ona musiqa va raqs san’ati tarixiy bosqichlarini o‘rganishda, yosh olimlarning olib borayotgan izlanishlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Usta Olim ijro etgan va kashf qilgan xalq doira usullarining asosiy yo‘llari Ilyos Akbarov, V.Uspenskiy, Ye.Romanovskaya tomonidan yozib olingan, bir necha marta chop etilgan. Bugungi kunda ham ko‘plab oliy o‘quv yurtlarida darslik sifatida o‘rganilmoqda.

— Usta Olim Komilov o‘zbek milliy raqs san’atining haqiqiy dahosi, qomusiy olimi edi, desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. U yaratgan doira usullaridan nafaqat Farg‘ona — Toshkent maktabida, balki mamlakatimizda mavjud beshta raqs maktabida ham keng foydalaniladi, — deydi O‘zbekiston xalq artisti, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali professori Gavharxonim Matyoqubova. — Yallali raqlar xalqona bo‘lgani sababli xalq orasiga singib ketgan. Shu o‘rinda ustozning rafiqasi, ham mohir raqqosa, ham iste’dodli baletmeyster Begimxon ayaning nomini ham albatta tilga olishimiz zarur. Aya Ustaning haqiqiy maslakdoshi bo‘lgan, ular ko‘plab raqslarni birga yaratgan. Bugungi yoshlarimiz ularning hayot yo‘llaridan, albatta, ibrat olishi kerak.

Davlatimiz rahbarining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ma’naviy-ijtimoiy sohada dasturilamalga aylandi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Unda o‘quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste’dodlarni aqlash va qo‘llab-quvvatlash masalasiga alohida e’tibor berilgan. O‘tib kelayotgan yosh avlod ongushuirda milliy madaniyatga muhabbat tuyg‘ularini singdirishda Usta Olim Komilov kabi san’at fidoyilaridan qolgan ma’naviy-ma’rifiy meros muhim ahamiyat kasb etadi. Undan meros raqslarining har biri faqatgina go‘zal, mufunkor harakatlar yig‘indisi emas, balki lirik-dramatik xarakterli yaxlit asar sifatida alohida qimmatga ega. Shu jihatlari bilan ham bu asarlar mangulikha daxldor.